

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. O'ZBEK-INGLIZ TARJIMALARINING NAZARIY	
ASOSLARI.....	8
1.1 Tarjima faoliyati va turlari.....	8
1.2 Tarjima mohiyatining ilmiy- nazariy asoslari va milliylik tamoyillari.....	15
I bob. bo'yicha xulosa.....	30
II BOB. TARJIMANING NUTQ MADANIYATIGA TA'SIRI.....	32
2.1 Tarjima va kontekstning, g'oyaviy-badiiy mazmuni.....	32
2.2 Tarjimada mantiqiy bog'liqlikning muhim jihatlari.....	43
II bob. bo'yicha xulosa.....	49
III BOB. XX - XXI ASR O'ZBEK-INGLIZ TARJIMALARINING	
QIYOSIY TAHLILI.....	50
3.1 Boburnomaning ingliz tili tarjimalarida uslubning o'ziga xosligi.....	50
3.2 Yusuf xos xojib «Qutadg'u bilig» asarining ingliz tiliga tarjimalarida shakl va mazmun birligi.....	57
3.3 Ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasi xususiyatlari.....	63
III bob. bo'yicha xulosa.....	70
XULOSA.....	72
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	77

K I R I S H

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda ilm-fanga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan, o'zbek adabiyoti durdona asarlarini tarjima qilish masalasi, tarjimonlikka qatta e'tibor berildi. O'zbek xalqining durdona asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish tarjimonshunoslik fani metodologiyasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, XX-XXI asr o'zbek-ingliz tarjimalarining uslub va ilmiy yondashuvlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, tasnifi va tavsifini tadqiq etish tarjimonlik metodologiyasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar davrida adabiyot va ma'naviyat davlat siyosati darajasidagi masala bo'lib kelmoqda. Dunyo mamlakatlari bilan turli sohalarda o'zaro aloqalar tobora rivojlanayotgan bugungi kunda har bir millatning qiyofasini belgilovchi mezonlardan biri bo'lgan badiiy adabiyot va tarjimani o'rganish o'sha xalqning turmush tarzi, ma'naviy qadriyatlari, ruhiyati bilan bog'liq bilimlarni oshirishda muhim omildir. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining davlat dasturida ustuvor yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish va innovatsiya faoliyatini takomillashtirish adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohasida ilmiy izlanishlar ko'lamini yanada kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratdi. Ushbu strategik vazifalar tarjimashunoslik sohasida ham chuqur izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 24 maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib

qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2017 yil 20 iyundagi PQ-3074-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori, 2017 yil 11 avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan mavzu doirasidagi muammo shu kunning dolzarb masalalari tadqiqotiga qaratilgan.

Tadqiqot ob'ekti va predmetining belgilanishi. XX-XXI asr o'zbek-ingliz tarjimalari tadqiqot ob'ekti bo'lib, XX-XXI asr o'zbek-ingliz tarjimalarining tasnifini va tavsifini tadqiq etish esa tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari:

XX-XXI asr o'zbek-ingliz tarjimalarini tasniflash va ularning tavsifini ishlab chiqish kabi tadqiqot maqsadini amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilandi:

- XX-XXI asr o'zbek-ingliz tarjima asarlari bilan tanishish;
- o'zbek-ingliz tarjimalari usullarini tahlil etish;
- XX-XXI asr o'zbek-ingliz tarjimalari tasnifini ishlab chiqish;
- XX-XXI asr o'zbek-ingliz tarjimonlarining usullarini qiyosiy tahlil etish orqali, ularning tavsifini yaratish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.

O'zbek adabiyoti durdona asarlarini ingliz tiliga qilingan tarjimalarini qiyosiy tahlil qilish, tarjima tamoyillarini aniqlash kabi masalalarga asoslanib, o'zbek tarjimashunosligida she'riy va nasriy asarlarni aslyatdan ingliz tiliga o'g'irishda yangi ilmiy-nazariy xulosalarga asoslangan gipotezalar yaratish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. XX - XXI asrlar davomida xorijiy tillarga tarjima qilishda tub burilish yasaldi, ya'ni yangi soha maydonga keldi.

Ushbu muammoga tarjimashunos olim G'.Salomov¹ ilk bor qiyosiy-tipologik uslubshunoslik asnosida yondoshdi. M.Baqoevaning² fundamental tadqiqotlarida tarjima asarlaridagi qiyosiy-uslubiy metodologiya hamda matn qurilishining turli darajalari muammosi ilmiy-nazariy asoslangan. R.Karimov³ she'riy tarjimalar muammosining o'ziga xos jihatlarini tadqiq etgan. Yurtimizda o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini xorijiy tillardagi talqinlari, xususan ingliz tiliga tarjima masalalari bo'yicha qator ishlar amalga oshirilgan. "Boburnoma", "Qutadg'u bilig" kabi mumtoz asarlarni o'rganish, tarjima qilish tadqiqotchilar va mutarjimlarning matnga qaysi jihatdan yondashishlariga bog'liq. Masalan mavzu doirasidagi muammo bo'yicha qator dissertatsiyalar himoya qilingan. Jumladan, S. Shukrullaevaning⁴ ishlarida asosan badiiy nasr namunasi sifatida yondashilgan. Jumladan, M.Sobirov⁵ matnda ko'zda tutilgan ma'no, uni to'g'ri tushunish va qay darajada to'g'ri yoritishni tahlil etgan bo'lsa, Z.Teshaboeva⁶ 'Boburnoma'ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklar va ularning milliy-madaniy jihatlarini o'rgangan. S.SHukrullaevaning⁷ ishlarida asosan badiiy nasr namunasi sifatida yondashilgan.

XX-XXI asrlarda mumtoz adabiyotimiz namoyondalari asarlarini ingliz olimlari tomonidan tarjima qilishga qiziqish oshdi. Anetta Susanna Beverij xonim qalamiga mansub. U "Boburnoma"da tarjima matnlari va bu asarga oid maqola va

¹ Саломов Г. Матн, таржима ва истилоҳ. -Т.: 1989. - 218 с ;Саломов Г. Таржима назарияси асослари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1983. - 218 с. ; Саломов Г. Таржима назариясига кирши.-Тошкент: Укитувчи, 1978. -220 б.;Саломов. Г. Таржима ташвишари.- Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.-190 б.

² Бакоева М. Англия, АҚШ адабиётидан ўзбек тилига шеърлар таржима ва киёсий шеършунослик муаммолари:Филол.фан.д-ри....дисс.-Т.:2004.-Б.272.

³ Каримов Р. «Бобурнома»даги шеърлар хорижий таржималарининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2003.

⁴ Шукруллаева С. Воссоздание художественного своеобразия «Бабурнаме» в его английских переводах. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1989.

⁵ Собиров М. «Бобурнома»нинг инглизча таржималарида муаллиф услуби ва бадиятини қайта тиклаш муаммолари (Лейден-Эрскин, Бевериж ва Текстон таржималарининг қиёсий таҳлили асосида). Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2002

⁶ Тешабоева З. «Бобурнома»нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликлар ва уларнинг миллий-маданий хусусиятлари. Фал.фан. филол. фан док. ... дисс. – Тошкент, 2017.

⁷ Шукруллаева С. Воссоздание художественного своеобразия «Бабурнаме» в его английских переводах. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1989.

asarlarni J.R.A.S (Journal Royal Asiatic) Socialy va I.O.-IndianOffice - (Hindiston mahkamasi) jurnallarida muntazam Chop ettirib borib, 1921-yilda yaxlit holda bosmadan chiqargan, keyingi tarjima Garvard universitetining professori Vilsr Tekston tomonidan 1990-yilda Oksford universiteti nashriyotida chop etilgan. Shuningdek, L.U.King⁸, A.S.Beverij⁹, U.Tekstonlarning¹⁰ ilmiy tadqiqoti mavzu doirasidagi muammoni tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

XX - XXI asr o'zbek-ingliz tarjimalari tasnifi va tavsifi hozirgacha chet el va o'zbek olimlari tomonidan o'rganilmagan va ushbu mavzu bo'yicha maxsus tadqiqot ishi olib borilmagan.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslubning qisqacha tasnifi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning ilm-fan, ta'lim tarbiya, chet tillarni o'rganishga doir farmonlari, soha mutaxassislarining mavzuga doir fundamental asarlari ushbu tadqiqot ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda qiyosiy-tarixiy, tavsifiy, chog'ishtirma, komponent, pragmatik, tahlil tadqiqot metodlari qo'llanilgan.

Tadqiqot olib borishda struktural metod, lingvistik metod, qiyosiy tahlil metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Tahlil qilingan materiallar asosida "o'zbekcha-inglizcha mumtoz so'zlar" tarjimalari tahlili keltirilgan;

Mumtoz asarlar tarjimalarini mantiqiy muvofiqlik bilan amalga oshirish masalalarini hal etish va mutarjim mahoratini tadqiq qilishda zaruriy ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qiladi;

Filologiya fakulteti magistratura va bakalavriat yo'nalishlari talabalariga tarjima nazariyasi va amaliyoti kurslari bo'yicha ma'ruza va amaliy

⁸ King L, Leyden J. & Erskine W. Memoirs of Zehir-ed-Din Muhammed Baber, Emperor of Hindustan. – London, 1826. Annetated and Revised ed. by L.King, 2 Vols., – Milford, 1921.

⁹ Beveridge A.S. The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the Original Turki Text of Zahiru'ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette Susannah Beveridge, 2 Vols., – London, 1922; Repr, in one Volume, – London, 1969; – New Delhi, 1970; – Lahore, 1975.

¹⁰ The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor, Translated, Edited, and, Annotated by Wheeler. M., Thackston. – New York & Oxford, 1996.

mashg'ulotlarni tashkil etish, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yozish uchun metodik ta'minot yaratishda ilmiy-uslubiy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

O'zbekiston jahon tamaddunida o'z o'rnini, mavqeiga ega mamlakatlar qatoridan o'rin oldi. Davlatimizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy rivoji ayni damda jahon siyosatshunoslari tomonidan yuqori baholanib kelinmoqda.

Durdona asarlarimizning bir nechasi ingliz tiliga tarjima qilinib o'zbek adabiyotini dunyo sahnasiga chiqardi. Aynan shu jarayonning o'tgan asar oxiri va ikkinchi ming yillik boshlanishidagi rivoji hali tadqiq etilmagan mavzular sirasiga kiradi. Jarayonning ilmiy – amaliy, tadrijiy tahlilashimizning yangiligini tashkil etadi.

- O'zbek-ingliz tarjimalarining ilmiy, ma'naviy ahamiyati ochib berildi.
- XX-XXI asr o'zbek-ingliz tarjimalari tasnifi ishlab chiqildi.
- O'zbek-ingliz tarjima usullari qiyosiy o'rganildi.
- Ingliz tiliga tarjima qilingan asarlar asosida tarjima tasnifi ishlab chiqildi.
- XX-XXI asr o'zbek-ingliz tarjimonlarining usullarini qiyosiy tahlil etish orqali, ularning tavsifini yaratildi.

Tadqiqotning tuzulishi.

Dissertatsiya kirish, uchta bob, yettita paragraf, xulosa, adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning jami hajmi 81 bet.

I BOB O'ZBEK-INGLIZ TARJIMALARINING NAZARIY ASOSLARI

1.1 Tarjima faoliyati va turlari

Til – axborotning muhim manbai. Bizga katta imkoniyatlar eshigini ochib bergan klassik va zamonaviy madaniy qadriyatlarimizga ehtiyotkorona munosabat bildirishimiz lozim. Zotan, O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalari rivojlanishi bilan xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ham ortib bormoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga yanada chuqur integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida chet tillarni, xususan, ingliz tilini o'qitishning kompleks tizimi yaratilib, amalda keng joriy etilmoqda. Zotan durdona ilmiy, badiiy asarlarni ingliz tiliga tarjima qilish orqali, o'zbek xalqining mentaliteti, millatimizning qadriyatlari, urf-odatlarini, an'analirini, ilm-fan yutuqlari hamda boy ma'naviy me'rosining durdona zahiralari dunyoga tanitishga yo'l ochib beradi.

Tarjima insoniyat faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri bulib, u tufayli biz insoniyat taraqqiyoti tarixini barcha tafsilotlari bilan ochiq-oydin tasavvur etamiz. Insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima - bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matniy), uning shakl va mazmun birligini saqlagan xolda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir. Demak, asliyatga mansub bulgan til vositalari yordamida yaratilgan nutqiy ifoda (matn) tarjima tili qonuniyatlari asosida vujudga kelgan shunday ifoda bilan almashtiriladi. Shu yo'l bilan asliyat va tarjima tillari matnlarining mazmuniy-uslubiy adekvatligi yuzaga keltiriladi.

Mazkur ta'rif tillararo amalga oshiriladigan jarayonga aloqador bo'lib, insoniyat faoliyatining ko'proq qismi mazkur amaliyot bilan bog'liqdir. Shu tufayli "tarjima" deganda aksariyat kishilar ko'z oldiga, birinchi navbatda, bir tildagi matnni ikkinchi tilga o'girish faoliyati namoyon bo'ladi.

Tarjima amaliyoti paydo bo'libdiki, asliyatni ona tiliga qanday o'girish lozim so'zma-so'zmi yoki erkin tarzdam – degan masala tarjimonlar oldida ko'ndalang turgan muammo sanaladi. XX asrning boshlarida ijod qilgan tarjimonlar, so'zma-so'z tarjimini yo'qlab chiqqanlari holda, amaliy faoliyatlarida shu usuldan ko'proq foydalanib kelgan bo'lsalar ko'pchilik ijodkorlar erkin tarjimini afzal ko'rib, tarjimon asliyatning harfini emas, ruhini, so'zini emas, mazmunini, shaklini emas, unda mujassamlashgan axborotni bera bilishi kerak degan nuqtai nazarni olg'a surganlar. Ammo masalani nazariy hal qilish lozimligi hech kimning xayoliga kelmagan tarjimaning maqsadi, kitobxonning saviyasi va didi, matn turi kabi qator masalalar muhokama kun tartibiga qo'yilmagan.

Nazariy asosning ishlanmaganligi tarjima jarayoniga turlicha yondashishni keltirib chiqargan. Bu, o'z navbatida, qator tarjima turlarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Mutaxassislarning fikricha, ularning ayrimlari ijodiy-ilmiy, ba'zilar illatli deb tan olinadi. Quyida ularning ayrimlari haqida fikr yuritiladi.

Ijodiy tarjima. Bu tarjima turida asliyat lisoniy vositalari matniy ma'nolari va uslubiy vazifalari umumxalq tili grammatik qoidalari bilan hamohanglikda qayta yaratiladi. Lisoniy vositalarning milliy-tarixiy, ijtimoiy va obrazli-hissiy xususiyatlari asliyatga xos va mos tarzda talqin etiladi. Asar sahifalarida muayyan uslubiy maqsadlar uchun qo'llanilgan fonetik-orfoepik hamda leksik-grammatik nutqiy chekinishlar o'z vazifalariga muvofiq muqobil lisoniy vositalar yordamida tiklanadi. Bularning barchasi muallif maqsadining kitobhonga etib borishi uchun imkon yaratadi.

So'zma-so'z tarjima. Bu tarjima turida asliyat tarkibidagi so'z birikmalari, barqaror iboralar, grammatik qurilish, so'z tartibi aksariyat hollarda tarjima tili qonuniyatlariga moslashtirilmaydi. Ko'pchilik lisoniy vositalar matniy holatlariga, vazifaviy jihatlariga, davriy va milliy xususiyatlariga qarab emas, balki lug'aviy ma'nolari asosida o'giriladi. Bu hol milliy-tarixiy va hissiy-ta'sirchan lisoniy vositalarning qo'shimcha xususiyatlardan xoli uslubiy betaraf, so'z va so'z birikmalari yordamida talqin etilishiga olib keladi. Turli mamlakatlarda badiiy tarjima, muammolariga bag'ishlab o'tkazilgan mintaqaviy kengash va

simpoziumlarda¹¹ so'z ma so'z tarjima amaliyoti qattiq qoralanib kelindi, bu haqda ko'pgina tanqidiy fikrlar bayon etildi. A. Sharif o'z ma'ruzasida so'zma-so'z tarjima amaliyotini illatli usul deb hisoblagan bo'lsa, T. Gnedich uning ijodiy ish emas, balki "sirk tomoshasiga o'xshash masxarabozlik" ekanligini qayd etdi. X. Xantemirovaning fikricha, "eng yaxshi so'zma-so'z tarjima" ham asliyat boyligi va o'ziga xosligini to'la-to'kis talqin etishga ojizlik qiladi. Darhaqiqat, so'zma-so'z amalga oshirilgan tarjima adabiy asar milliyligi va badiiyligini tashkil etadigan barcha unsurlarni juda xira talqin etadi: asar yaratilgan davr buyog'i, uning musiqiyligi va ritmi, hissiy-obrazli vositalari, personajlari nutqi tasviri, muvaffaqiyatli qo'llanilganligi tufayli ifodaning joziba kuchini oshiradigan yangi til birliklari, yozuvchining individual-ijodiy uslubi bularning hammasi deyarli yo'qqa chiqariladi. Tarjimon yaratgan vositalarda muallif uslubidan ko'ra tarjimon qalami ko'proq ko'zga tashlanib turadi. Demak, so'zma-so'z tarjimaga mamlakatimizda ilgari xorijiy tillarni puxta egallagan ijodiy ziyolilarning yetishmaganligi tufayli noiloj murojaat qilingan, hozir esa o'zga tillarni mukammal egallagan ijodkorlarning borgan sari ko'plab etishib chiqayotganligi tufayli unga amaliy faoliyatdan bemalol siqib chiqarilishi lozim bo'lgan illatli usul sifatida qaraladi.

Obrazlashtirilgan tarjima. Bu tarjima turida muallifning individual ijodiga xos tarzdagi tasvirni yuzaga keltirgan lisoniy vositalar beasos obrazli iboralar, his-tuyg'uni ifoda etadigan so'zlar, balandparvoz birik malar bilan almashtirib ugiriladi. Natijada muallif tasviri me'yori buzilib. muddaoga zid o'zgacha uslubli matn yuzaga keladi. To'g'ri, muallif ijodi ham o'z-o'zidan hissiy-ta'sirchan so'z va iboralar, obrazli tashbehtar bilan to'lib-toshgan bo'lishi mumkin. Bu yozuvchining badiiy-estetik jihatdan barkamol tasvirlashga intilishi bilan bog'liq bo'lib, ayni sa'yharakat hech qachon me'yordan oshib ketmaydi. Obrazlashtirilgan tarjimada esa, barcha harakatlar asar obrazlilikini kuchaytirish uchun ataylab amalga oshirilishi tufayli umumiy obrazlilik haddan ziyod tus olib, g'ayritabiiy

¹¹ Актуальные проблемы теории художественного перевода. М., 1967, I-II жилдлар

xususiyat kasb etadi. Bunday tarjima matn haqida soxta estetik tasavvur hosil qiladi.

Moslama tarjima. Bu tarjima turida asliyatga o'ta erkin munosabatda bo'linadi. Ko'proq komediya janriga mansub sahna asarlari hamda she'riyat namunalari tarjimasida mavzu, personajlar tarkibi, mazmuniy xususiyat odatda saqlansada, asliyatda mujassamlashgan milliy o'ziga xoslik, urf-odatlar, ruhiy holatlar tarjima tili sohiblariga xos shunday jihatlar bilan almashtiriladi. Natijada o'ziga xos tasviriy vositalar silsilasidan iborat muallif matni tarjima tili mansub bo'lgan xalq libosiga burkanadi. Bunday tarjima beasos asliyatni imkon qadar tarjima tili sohiblariga yaqinlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Moslashtirilgap tarjima usuliga ko'proq o'tgan asrning XX asrning 30-40 yillarida murojat qilingan. Masala shu darajaga borib yetganki, ko'p hollarda sahna asarlari personajlari nomlari mahalliy xalq vakillari nomlari bilan almashtirilgan, sahnada namoyish qilingan to'y-tomosha va boshqa tadbirlar o'zbekona usulga yaqinlashtirib talqin etilgan. Moslashtirilgap tarjimaning paydo bo'lishi sabablaridan biri o'z qalami quvvatiga ijodkorning asarni kitobxon qo'lida tezroq kurish orzusi bilan bog'liqdir. Ikkinchi sababi - tarjimonning o'zga xalq hayotining o'ziga xos tarzda tasviriga bag'ishlangan badiiy yodgorlikni o'z kitobxoniga maqbul va manzur tarzda etkazib berish istagidan iboratdir

Vositachi tildan tarjima. Keng kitobxon ommasini turli xalqlarning nodir asarlari bilan tanishtirish, ularni insoniyat zakovati mahsuli bo'lmish yuksak darajada purmantiq fikrlar dunyosidan bahramand qilish mas'uliyati respublikamizda badiiy tarjima ishiga katta e'tibor qaratishni talab qilmoqda. Fuqarolarimiz adabiy zaxiralarini o'z vatandoshlari asarlari hisobigagina emas, balki juda ko'p yondosh, qardosh xalqlar, hatto uzoq xorij mualliflari yaratgan durdonalar hisobiga ham boyitmoqdalar. Hozirgi kunda o'zbek tarjimachiligi ham miqdor, ham sifat jihatidan gurkirab o'sish kamolot chuqqisi sari intilish amaliy jihatdan bevosita tarjima darajasida o'zini oqlamaydigan soxta usulni ilmiy tahlil qilishga kirishi samarasiz urinishdir. Aslida masalaga butunlay boshqacha yondashish zarur. Yagona ijobiy usul sifatida bevosita tarjimani qattiq turib

himoya qilgan, uni tashviq va targ'ib etgan hamda nazariy umumlashtirgan holda, vositachi til orqali tarjimaga xorijiy tillardan tarjima qiladigan malakali tarjimonlarning kuplab paydo bo'la borishi oqibatida asta-sekinlik bilan yo'q bo'lib ketaveradigan saqlab qolinishiga esa hech qanday ehtiyoj tug'ilmaydigan soxta usul sifatida qaralishi lozim.

XX asrning 60-70-yillarida bu jarayon invariantlik, ekvivalentlik tarjima jarayoni kommunikativ akt nuqtai nazardan qaralgan ilmiy tadqiqotlarda o'z aksini topdi. Eshitilgan matn mazmunini ikkinchi bir tilda og'zaki qayta tiklash masalasi dastlab mashina tarjimasi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilarning tekshirish ob'yekti bo'ldi. Bunday yondashuv lingvistik transformatsiyalar, ya'ni matnni interpretatsiya qilish bilan cheklanib qoldi. Biroq bu yondashuv orqali matnni analiz va sintez qilishni qoliplash, matndagi stilistik, semantik jihatlarni e'tiborga olish kabi nazariyalar yaratildiki, ular, shubhasiz, keyinchalik sinxron tarjima nazariyasining yuzaga kelishiga munosib hissa qo'shdi.

Tarjima jarayonini kommunikativ akt sifatida tadqiq qilgan olimlar bu jarayonning quyidagi jihatlari e'tibor berishadi:

1) tarjima jarayoni ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan jarayondan: axborotni uzatuvchi va tarjimon, tarjimon va axborotni qayta qabul qiluvchi (tinglovchi) o'rtasidagi kommunikativ aktdan iborat;

2) tarjimon bu jarayonning ishtirokchisi sifatida navbati bilan axborotni qabul qiluvchi va uzatuvchi vazifasini bajaradi va bu vazifa tarjima jarayonining qanday bo'lishligida muhim rol o'ynaydi ¹².

Shunday qilib, *sinxron tarjimaning* boshqa tarjima turlaridan farqi shundaki, tarjimon bu jarayonda o'zi eshitgan axborotni shu lahzaning o'zidayoq, boshqa tilga o'giradi va turli tilda so'zlashuvchi kishilar o'rtasida aloqa-aralashuvni ta'minlaydi. Ta'kidlash joizki, tarjimaning lingvistik muammolari bilan shug'ullangan tadqiqotchilar bu xil tarjimaning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur

¹² Бу ҳақда:Швейцер А. Д. К проблеме лингвистического изучения процесса перевода // Вопросы языкознания. 1970-№4; Перевод и лингвистика. - М., 1973

o'rganmasdan, uni og'zaki tarjimaning bir turi sifatida tadqiq qilishdan nariga o'tmayapti.

Masalaning psixolingvistik muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlar tomonidan sinxron tarjimaning temporal (zamon bilan) tavsifi chuqurroq o'rganildi. Masalan, chet tilida so'zlayotgan kishining nutq tezligi bir daqiqada 100-120 so'z bo'lsagina, sinxron tarjima yuqori darajada tashkil qilingan, 150-200 so'zdan iborat bo'lsa, sinxronchining ishi qiyinlashgan, ayrim fikrlarni tushirib qoldirgan, xatolarga yo'l qo'ygan hisoblanadi ¹³.

Shuningdek, sinxron tarjima jarayoniga salbiy ta'sir qiluvchi nutqning eshitilish darajasi, shovqin, to'xtamning o'rni, tarjimon diqqatining taqsimlanishi kabi masalalar ham atroflicha o'rganilib, sinxron tarjimaning nazariy asoslarini ishlab chiqishni tezlashtiradi.

Sinxron tarjima jarayonini qoliplash asoslari D. Ger-ver (1975), G. V. Chernov (1973, 1978), A. F. Shiryayev (1979)ning asarlarida nazariy jihatdan o'z aksini topgan va ular, asosan, psixologik va psixolingvistik tahlillarga asoslangan. Masalan, D. Gerver ishlab chiqqan qolipda tarjimada sinxronchining xotirasi va uning turlari, ularning sinxron tarjimadagi o'zaro munosabati, sinxron tarjima jarayonida diqqat, o'z nutqini nazorat qilish, xotirada saqlash kabi muammolar o'rganib chiqilgan. Bu modelning kamchilik tomonlaridan biri shuki, sinxronchi tomonidan qabul qilingan axborotni anglash, uni ikkinchi tilda qayta tiklash bosqichlari yetarlicha o'rganilmagan. Shuningdek, bu qolipda sinxron tarjimaning lingvistik muammolariga ham yetarli o'rin berilmagan. B. Moser (Moser; 1978) o'z tadqiqotida qabul qilingan akustik signalning sinxronchi miyasi tomonidan bosqichma-bosqich ishlab chiqish modelini yaratdi. Unga binoan, qabul qilinayotgan axborotning bosqichma-bosqich kengaytirib borishi ko'zda tutiladi. Bu o'rinda qabul qilinayotgan axborotning akustik, fonologik, verbal jihatlari, axborotni ikkinchi tilda qayta tiklash jarayonida so'zlarning ketma-ketligiga, sintaktik va semantik jihatlari ta'siri, gapning asosiy ma'no tashuvchi unsuri - fe'lga etibor berishi alohida ta'kidlanadi. G. V. Chernovning fikricha (1987),

¹³Қаранг: Ширяев А. Ф. Синхронный перевод. -М., 1979 – 205 с.

mazkur qolipda ham sinxron psixologik asoslarga tayangan holda sinxron tarjima jarayonida nutqning harakatlantiruvchi mexanizmlariga deyarli e'tibor berilmagan. Yuqoridagi tadqiqotlarning aksariyatida psixologiya fani doirasida amalga oshirilgan sinxron tarjimaning lingvistik muammolari e'tibordan chetda qolgan. Shunga qaramay, ularda sinxron tarjimaning qator psixologik mexanizmlari, jumladan, axborotni qayta ishlashning ko'p kanalligi, bu jarayonda xotira turlarining o'rni kabi masalalar nazariy jihatdan isbotlangan.

Sinxron tarjimaning nazariy asoslarining yaratilishiga Sarbonna (Parij) universitetining olimlari "Mazmun nazariyasi" maktabi tadqiqotlari bilan katta hissa qo'shdi. Bu nazariyaning asosiy mag'zi shundaki, unda tarjimonning asosiy vazifasi eshitilgan nutq mazmunini kayta tiklash ekanligi qayta-qayta ta'kidlangan. Bu nazariya asoschisi D. Seleskovichning fikricha, sinxronchi notiq nutqini eshitayotib so'zlarni emas, balki gap ma'no-mazmunini tarjima tiliga o'girib gapirishi lozim. Albatta, bu o'rinda uning xotirasi, gapirilayotgan nutq mavzusi bilan tanishligi, nutq vaziyatida o'zini tutish holati, chet tilini mukammal bilishi muhim rol o'ynaydi va u notiq nutqini iloji boricha to'liq berishga harakat qiladi. Bu jarayonda «eshitish-tushunish, qayta tiklash» jarayoni amalga oshiriladi.

G. V. Chernovning fikricha, bu nazariyaning asosiy kamchiliklaridan biri - sinxron tarjimadagi bir paytda sodir bo'ladigan yeshitish va qayta tiklash jarayonining nazariy jihatdan asoslanmaganligi, sinxron tarjima jarayonini tashkil qilish mexanizmi to'liq ishlab chiqilmaganligidir.

G. Chernov sinxron tarjimaning boshqa turlardan farqini ko'rsatgan holda, uning quyidagi xususiyatlarini alohida ta'kidlaydi:

- 1) tarjima tiliga axborot og'zaki yetkaziladi (eshittiriladi);
- 2) ishtirokchilar bu axborotni eshitib qabul qiladi;
- 3) axborot bir martagina eshittiriladi;
- 4) axborotni eshitish ham, uni tarjima tiliga o'girish ham bir paytning o'zida sodir bo'ladi;
- 5) nutq tezligi va tarjima tezligi belgilanmagan bo'ladi;
- 6) tarjima qilish uchun hech qanday vaqt belgilanmaydi;

- 7) tarjima qiladigan nutq hajmi ham belgilanmaydi;
- 8) sinxron tarjima orqali ommaviy kommunikatsiya akti amalga oshiriladi;
- 9) shaxslararo muloqot amalga oshirilmaydi.

Shunday qilib, sinxron tarjima sifatini ta'minlovchi omillar - bu chet til axborot mazmunini oldindan faraz qilish va axborotni boshqa tilga ugirib gapirishda uning asosiy ma'nosini sintez qilish mexanizmini shakllantirishdir.

Keyingi yillarda tadqiqotchilar e'tiborini ko'proq jalb qilib kelayotgan til kommunikatsiyasining pragmatik jihatida muloqot ishtirokchilarining qo'shimcha bilimlari bilan chambarchas bog'liq ekanligi e'tirof etilmoqda. Asliyat va tarjima tillari g'ayrilisoniy omillarining aksariyat hollarda o'zaro farqlanishi tarjimondan chuqur lingvistik bilimdan tashqari, yana asliyat tili bilan bog'liq boshqa fanlar, madaniyatlar, urf-odatlar, an'analar haqidagi ma'lumotlardan ham xabardor bo'lishni talab qiladi. Til belgilari va ulardan foydalanadigan shaxslar o'rtasidagi pragmatik munosabatlar shundan iboratki, bu belgilar, aniqrogi, ularning ma'nolari shaxslar uchun tushunarli bo'lishi, ularni ma'lum darajada ta'sirlantirishi kerak. Axborot shu yo'sinda talqin qilinganida, asliyatning kommunikativ va pragmatik ta'sirchanligi saqlab qolinadi.

1.2 Tarjima mohiyatining ilmiy- nazariy asoslari va milliylik tamoyillari

Tarjima nazariyasi keyingi paytlarda jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Olimlar tarjimashunoslik oldida turgan dolzarb muammolarni tadqiq qilish, shu asosda tarjima amaliyoti ravnaqi uchun zarur ilmiy umumlashmalar yaratish ishiga chinakamiga kirishib ketdilar. Mazkur sa'yoharaktlar asosan tarjimaning tadqiqotchilar tomonidan nutq faoliyatining alohida ko'rinishi sifatida tan olinayotganligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tarjima masalalari ko'prok olimlar e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda.

O'zga tilda bitilgan badiiy yodgorlikning davr talabi darajasida tasavvur beradigan tarjima matnini yaratish muttafkirlar bu sohadagi amaliy va nazariy bilimlar bilan puxta qurollanishi zaruratini tug'diradi. Chunki badiiy mahorat

sirlarini har tomonlama mukammal egallab olgan qalamkashgina mazkur ijod mahsuli bo'lmish fikrni asliymonand tarzda ifoda etish san'atini o'zida puxta singdirib olgan iste'dod sohibi sifatida to'laqonli badiiy tarjimalar yaratishdek o'ta mas'uliyatli ishning uddasidan chiqishi mumkin.

Har qanday barkamol tarjima ilmiy umumlashtirishga ehtiyoj sezgani holda, ijodkorni asarning asl nusxasiga aloqador barcha manbalarni to'la-to'kis ilmiy idrok etishini hamda ularga asoslangan jami omillarni o'z tilida ongli ravishda bekami-ko'st aks ettirishini nazarda tutadi. Bu hol tarjimon zimmasiga badiiy yodgorlikning asosiy mazmun chizig'ini tasvir etadigan lisoniy xususiyatidan tashqari, asar sohibi bo'lmish xalq ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy hayoti, ruhiy kechinmalari bilan bog'liq g'ayrilisoniy jihatlarni ham qayta yaratish mas'uliyatini yo'qlaydi. Zero, asliyat mansub bo'lgan xalq turmush tarzini, urf-odatlarini, adabiyoti va madaniyati tarixini, diniy va milliy qarashlarini, mamlakati siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzumini puxta o'zlashtirib olmasdan turib, asarda tasvirlangan voqea-hodisalar to'g'risida batafsil tasavvur hosil qilish va, natijada, shakl va mazmunning uyg'unligidan iborat to'laqonli tarjima yaratish amri mahol. Negaki, har qanday asliymonand tarjima zaminini shakl va mazmunning dialektik birligi tashkil etadiki, mazmunning yetakchi ahamiyatini pesh qilgan holda, unga ortiqcha imtiyoz berib, shaklga e'tiborni susaytirish asar badiiy va milliy xususiyatining, tarixiy o'ziga xosligining siyqalanishiga olib keladi.

Tarjima nazariyasini tom ma'nodagi tilshunoslik muammosi tarkibiga kiritish joizligi tadqiqotning kommunikativ nuqtai nazardan olib borilishini taqozo etadi. Kommunikativ munosabat tillararo muloqot jarayonida ishtirok etadigan barcha millatlarni hisobga oladi. U tarjima qilinayotgan matn tarkibida mujassamlashgan ma'lumotlardan tashqari yana axborot beruvchining matn tashqarisida aks etgan muloqot maqsadini hamda tarjimonning bayon etilgan fikrni to'g'ri qabul qilish uchun zaruriy ma'lumot, bilim va malakaga ega bo'lishini ham nazarda tutadiki, mazkur omillar tarjima tilida teng qiymatli kommunikativ ta'sirchanlik yaratish imkoniyatini beradi. Tarjima jarayoniga bunday munosabat tarjima nazariyasini badiiy tarjima tadqiqotning alohida mustaqil sohasi sifatida

ajratish joizligini belgilaydi. “Keng tarqalgan tillararo kommunikatsiya amaliyoti, xususan tarjima faoliyati tilshunoslik fanining doimiy kuzatuvda bo’lishi lozim”¹⁴ deb yozgan edi R. Yakobson. Shunday qilib, yangi tarjimaning tilshunoslik fani tarkibida tadqiq qilinishi lozimligi haqidagi nuqtai nazar vujudga keldiki, tarjima amaliyotini tadqiq qilish shu yo’l bilan olib borilgandagina tilshunoslikning ayni tarmog’i kuproq taraqqiy etadi, takomillashadi.

Badiiy tarjima nazariyasining vazifasi tarjima jarayoni tizimi tarkibini aniqlash va shu asosda tarjima amaliyoti uchun zarur bo’lgan umumiy qonuniyatlarni muayyan qilishdan iboratdir. “Badiiy tarjima nazariyasi bir til matnining ikkinchi til matniga aylanishi qonuniyatlarini muayyan qiladi, o’rganadi va modellashtiradi”¹⁵. O’zgacha qilib aytganda, tadqiqotchi tahlil paytida nutqiy jarayonning birlamchi tilda tashkil etilishini va tarjima tilida unga kommunikativ jihatdan teng qiymatli nutqiy jarayonning yaratilishini kuzatib boradi. Birlamchi va tarjimon tomonidan yaratilgan matnlarning kommunikativ muvofiqligigina asl nusxada aks etgan axborotning adekvat qayta yaratilganligidan dalolat beradi.

Badiiy tarjima nazariyasining afzalligi shundan iboratki, u tarjima amaliyotining ijodiy xususiyatini e’tirof etgani va uning boy tajribasiga tayangani holda, lisoniy-uslubiy dalillar asosida asar matnining qiyoslanayotgan tillardagi nutqiy tuzilishni ongli ravishda ilmiy tahlil etadi va shu asosda muayyan tanlangan tarjimaviy variantning ayni holat uchun maqbul yoxud nomaqbulligini xolisona isbot qiladi. Mazkur nazariya shu xususiyati bilan ilgari hukm surgan ayrim noaniq, ko’pincha til dalillari bilan bog’lanmagan, ya’ni tarjimalarning adekvagligi yoki noadekvatligi to’g’risida quruq, aksariyat hollarda sub’ektiv mushohada va muhokamalar yuritgan ”nazariyalar”dan farq qiladi. Bunday tadqiqot o’z oldiga qiyoslanayotgan tillar tarkibidagi alohida unsurlarning bir-birlariga mos kelish yoki kelmaslik holatlarini muayyan qilish asosida umumiy

¹⁴ Jakobson R. .1. On linguistic aspects of translation . In.: R. J. Brower (ed). On translation . New York. Oxford University Press, 1966. p. 234.

¹⁵ В.Н. Комиссаров. Лингвистика перевода. М., ИМО. 1980. с. 3

tarjima nazariyasi uchun zarur qonuniyatlarni ishlab chiqish vazifasini qo'yadiki, bu hol pirovardida "tarjimaviy muvofiqlikning yaxlit tizimini"¹⁶ vujudga keltiradi.

Badiiy asarning kitobxonga ta'sir kuchi matnning badiiy qimmati, kitobxonni o'ziga jalb qila olishi bilan belgilanadi. Bunday badiiy matn tarjimasining pragmatik vazifasi tarjima tili matnida ham asliyatdagidek kitobxonga badiiy-estetik zavq uyg'ota oladigan matn yarata olishdir. O'z ona tilida Shekspir, Ch. Dikens asarlarini o'qigan kitobxon asliyat muallifining badiiy iste'dodini his qila olishi, nima uchun ular o'z vatanlarida buyuk adiblar sifatida tan olinganligini tushunadi. Tarjimon bunday vazifani uddalay olsa, asliyatning kommunikativ effekti to'la qayta tiklangan deb hisoblash mumkin. Albatta, asliyatning ingliz kitobxonlariga kommunikativ ta'siri va shu asar tarjimasining o'zbek kitobxonlariga ta'sirini qiyoslab baholovchi me'yorlar yo'q. Bu o'rinda asliyat va uning tarjimasini ingliz va o'zbek kitobxonlarida uyg'otgan kommunikativ ta'sirni taxminan belgilash mumkin. Masalan, tarjimani o'qigan kitobxonning reaksiyasi asliyatni o'qigan kitobxonnikiga nisbatan kamroq yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Shuningdek, tarjimaning frazeologik jihatlari hozirgi kunda o'ta muhim va dolzarb konsepsiyalardan hisoblanadi. Chunki tarjima jarayonida har bir so'zning etimologik mazmun mohiyati bevosita milliy ruh, milliy qadriyat, milliy urf-odatlar bilan bog'liq bo'ladi. So'zning ma'nosida millatning tarixi, madaniyati, mentaliteti aks etganligini inobatga olgan holda tarjimada frazeologizmning o'rni beqiyosdir.

Milliy tamoyillarining o'zaro ta'siri asosida paydo bo'lgan tarjima asoslari quyidagilarga asoslangan bo'ladi.

1. Milliy va diniy qadriyatlar asosida yuzaga kelgan frazeologik birliklar.
2. Qadimgi afsonalar asosida shakllangan frazeologik birlilar.
3. Yevropa tillaridan o'zlashgan frazeologik birliklar.

¹⁶ В. Н. Комиссаров. Специфика переводческих исследований. – Тетради переводчика Вып. 5. М., ИМО. 1968. с. 7.

Injil asosida kelib chiqish frazeologizmlarning semantik, lingvokul'turologik aniqlashda lug'atlarni tahlil qilish, lingvistik tahlil va statistik metodlari qo'llaniladi.

Diniy qadriyat bu madaniyatning o'zida namoyon qiluvchi bir namuna va inson tasavvurining muhim qismidir: Din frazeologizmining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Xristian dinida bo'lgan Britaniyaliklarning muqaddas diniy kitobi Bibliya hisoblanadi. Shuning uchun ham ayrim iboralar qatorida joy nomlari hamda oziq-ovqat komponentli frazeologizmlar ham og'zaki ham yozma nutqda Bibliyadan olingan. Bibliya frazeologiyasi internatsional frazeologik fondning bir qismini tashkil qiladi va aksariyat Yevropa tillarida keng tarqalgan Bibliyadan olingan frazeologizmlar bibleizmlar deb ataladi.

Bibliya frazeologizmlari quyidagi lug'atlarda ko'p uchraydi: Oxford Dictionary of English Idioms, Longman Dictionary of English Language and Culture, Wordsworth Dictionary of Phrase and Fable.

E.M.Soloduxo ishlarida ko'p tillar frazeologiyasida yetarlicha keng qatlamda namoyon bo'luvchi "frazeologik internatsionalizm"ni tahlil qilgan "frazeologik yaqinlashuv" nazariyasi? Bibliya frazeologiyasiga qiziqish uyg'otadi.

Frazeologik internatsionalizmining asosini nafaqat Rim va Grek mifologiyasi, butun shahar adabiyoti va tarixiy kiruvchi birliklar balki Bibliya tarkibidagi frazeologik birliklar ham tashkil qiladi E.M.Soloduxo frazeologik internatsionalizm o'zlashmalari manbasi va asosi tushunchalarining farqini kuzatadi va birinchi tushuncha ikkinchisiga qaraganda ancha keng ekanini ko'rsatib beradi.

Muqaddas diniy kitobdan kelib chiqqan so'z va iboralar S.Stoffeldning "Studies in English, written and spoken" asarida keng tahlil qilingan. Ushbu asarning "Scriptural phrases and allusions in Modern" bobida muallif bibliya iborolari va ularning etimologiyasini o'rganib ilmiy tadqiq qilgan.

G'arb tilshunosligida bibleizmlarni o'rganish L.P.Smit nomi bilan bog'liq. U o'zining "Ingliz tili frazeologiyasi" kitobida bibliya iboralariga bag'ishlangan bo'limida o'rgangan. Muallif "Ingliz tiliadagi bibliya oborotlari va iboralarining

soni shunchalik ko'pki, ularni yig'ish va sanab chiqish juda oson vazifa emas" deb ta'kidlaydi.

Shuningdek, L.P.Smit ingliz tili nafaqat birtalay bibliya so'zlarini, balki o'zida qadimgi Yevrey va Yunon idiomalari so'zma-so'z tarjimasini namoyish qiladigan bibliya idiomatic iboralarini ham o'z ichiga oladi deb tasdiqlaydi. Shunday qilib, L.P.Smit, I.Xorazin'skayav V.A.Mendelyonlarning tarifidan ko'rinib turibdiki, bibleizmlar so'z emas, shubhasiz so'z birikmalaridir.

Madaniyatlarning o'zaro ta'siri ostida yuzaga kelgan frazeologizmlardan biri injil asosida paydo bo'lgan frazeologizmlardir. Ularning bir nechtasini tahlilga tortamiz.

"Bull of Bashan" gurillagan ovozli odam. Ushbu frazeologizmning paydo bo'lishiga sabab Bashan Falastin davlatidagi bir viloyat bo'lib, qadimda bu shahar o'zining chorva mollari bilan mashhur bo'lgan. Bull – ho'kiz ma'nosidagi inglizcha so'z. Basbon esa joy nomli demak, chorvachilikka asoslangan bu shahar nomi bilan "Bull of Bashan" frazeologizmi yuzaga kelgan.

Muqaddas kitob Injilda bu haqda shunday ma'lumotlar keltiriladi. Sodom va Gomarda yahudiylar shahri bo'lib, shaharda yashaydigan aholi xudoga bo'ysunmagan, o'zboshimchalik qilib, buzuqlikka, axloqsizlikka muxkasidan ketishgan. Parvardigor ularni jazolashga ahd qilib, ularga olovli yomg'ir va yer qimirlashini yuboradi. Natijada bu ofatdan shaharlar vayron bo'ladi. Shaharlardagi qirg'in barot urushlar o'rnida hozirda O'lik dengizini vujudga keltiradi. O'lik dengizda esa hech qanday tirik jon yashay olmaydi.

"Lady of Babylon" – a) axloqsiz ayol, b) Rim katoli cherkovi. Ushbu frazeologizmning ham asl ma'nosi fohishabozlikka borib taqaladi. Chunki tarixdan ma'lumki, Babylon (Bobil) faxsh va buzuqlik mamlakati bo'lgan. Xulosa qilinganda, Injil asosida yuzaga kelgan frazeologik birliklarda joy nomlari madaniyatlarning o'zaro ta'siri asosida paydo bo'lganligini ko'rish mumkin[31;36]

Injil asosida yuzaga kelgan frazeologizmlardan tashqari qadimgi afsonalar asosida shakllangan frazeologizmlar mavjud. Ma'lumki, qadimgi

afsonalar, asotirlar xalq tomonidan yaratilgan bo'lib, ular o'sha xalq madaniyatini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Qadimgi afsonalarga qaraganda, yunon xudolari muqaddas Olimp to'g'larida yashagan. Tog'ning balandligi 3000 metr bo'lib, tog'ning asosiy qismi bulutlar bilan qoplangan. Yunon xudolari Olimp tog'ida aqli, inoq, tinch – totuv va osoyishta yashaganliklari uchun barcha ijobiy fazilatlar Olimp tog'i nomi bilan ishlatilgan. Shu boisdan tilda “Olympian Calmnass” – tinch – osoyishta frazeologizmi paydo bo'lgan.

Yunon afsonalarida yozilishicha, Parnas Yunonistonning tog'li bir qismi bo'lib, tog'ning balandligi 2457 metr. U yerdan yunon xudosi Appolon va muzalar istiqomat qilishgan. Parnas nomi bilan bog'liq quyidagi frazeologizmlar mavjud.

“Ascent Parnassus”, “join Parnassian” – shoir bo'lmoq. Yunon afsonalariga ko'ra san'at, adabiyot va fan ilohasi, ilhom parisi.

Qadimgi yunon afsonalarida ta'kidlanishicha Gades – ruhlar yashaydigan koy. Aslida Gades qorong'u, zimiston joy ma'nosida ishlatiladi. Ammo uning boshqa bir ma'nosi bo'lib, u “hot as Hades” frazeologizmida Gades do'zax ma'nosida ishlatiladi. Xuddi shunday Stins daryosi nomi bilan bog'liq frazeologizmlar ham mavjud.

“Cross the Stygian (Styx)” – o'lmoq, dunyodan ko'z yummoq, olamdan o'tirmoq, dorilbaqoga ketmoq, vafot etmoq.

Afsonalarga ko'ra Stins daryosi orqali o'lgan insonlarning ruhlari o'liklar dunyosiga o'tishgan.

Shunday qilib, afsonalar xalq tomonidan yaratilgan noyob asarlar bo'lib, ularda ko'plab frazeologizmlar ishlatilgan.

Madaniyatlarning o'zaro ta'siri ostida paydo bo'lgan frazeologizmlarning aksariyati boshqa tillarda kirgan frazeologizmlardir. Joy nomlari bilan bog'liq frazeologizmlarning aksariyati ingliz tiliga asosan lotin va fransuz tillaridan kirib kelgan.

Masalan: (to build) castles in Spain – ushalmas orzular. (etimologik jihatdan fransuzcha Chateaux en Espagne). Ushbu ibora ingliz tiliga fransuzlarning “Chansons de Geste” nomli qahramonlik eposidan kirib kelgan.

Yunonistonning Attika shahri qadimiy shaharlaridan biri bo'lib, shahar aholining ko'pchiligi o'zining o'tkir zehni bilan boshqa shahar fuqarolaridan ajralib turishgan. Shunga asosan “Altic salt” – nozik qochirg'ish, o'tkir zehn frazeologizmi paydo bo'lgan.

V. N. Komissarovning¹⁷ ta'kidlashicha, har qanday til belgisi odatda uch xil munosabatni o'zida mujassam etadi. Ular semantik, sintaktik va pragmatik munosabatlar bo'lib, birinchisi til belgisining u anglatadigan predmet bilan aloqasini aks ettiradigan, ikkinchisi - til belgisini mazkur tizimga aloqador boshqa belgilar bilan bog'lab turadigan va uchinchisi – til belgisi bilan muluqot jarayonida undan foydalanuvchi shaxslar o'rtasidagi aloqani muayyan qiladigan munosabatlardir. Shunday qilib, til belgisi semantik (denotativ), sintaktik va pragmatik ma'nolari bilan ajralib turadi. Til belgisi deganda J. S. Barxudarov so'zni nazarda tutadi. So'zning pragmatik ma'nosiga uning uslubiy xususiyatini, ya'ni xis-xayajonni ifodalash ko'rsatkichini - konnotativ ma'nosini kiritadi. Demak, K. Ryulker¹⁸ ta'biri bilan aytganda, tarjimada pragmatik talab tarjima matnining aslyat matni darajasidagi aniqligini taqozo etadi. Tarjimaviy dushvorlik pragmatik, ya'ni uslubiy ekvivalent birliklarning tanlanishi bilan bartaraf etiladi.

Ma'lumki, ilmiy-texnikaviy matnlarning barqaror vazifasi atrofmuhit harakatini tushuntirish va ko'rsatishdir. Bunday holda kitobxonga pragmatik ta'sir ko'rsatishning yagona vositasi unga muayyan ilmiy-texnikaviy xarakterdagi axborotni to'liq etkazishdan iborat bo'ladi. Agar o'quvchi, ya'ni axborotni qabul qiluvchi shu axborot asosida tegishli uskunalar yordamida ma'lum tajriba o'tkaza olsa, matnning kommunikativ effekti amalga oshirilgan hisoblanadi.

¹⁷ Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода. М., * Международные отношения#. 1980. стр. 101.

¹⁸ Riilker K. Zur pragmatischen Invariante in der Translation. (Referatstliesen). Leipzig, 1970.

Ushbu o'rinda asliyat va tarjimaning qiymati mutloq bo'lishi shart emas. Shunday ham bo'ladiki, tarjimadagi ilmiy-texnikaviy axborotdan mutaxassislar foydalanishi uchun asliyatdagiga nisbatan yanada tushunarliroq, aniqroq shakllarda bayon qilingan bo'lishi mumkin. Bunday xollarda tarjimaning asosiy pragmatik maqsadi asliyatdan ko'ra yaxshiroq amalga oshirilgan bo'ladi.

O'quvchida matn tarjimasiga nisbatan zarur kommunikativ ta'sir uyg'otish masalasi nisbatan qiyin. Bu o'rinda tarjimon nafaqat matnning kommunikativ ta'siriga, balki o'quvchining individual xususiyatlariga ham tayanishga to'g'ri keladi. Tarjimon o'quvchining xarakteri, ruhiy holati, matndagi axborot unga qanday emotsional va ruhiy ta'sir qilishini hisobga olishi zarur. Bunday hollarda matnni pragmatik nuqtai nazardan tabdil qilishga to'g'ri keladi. Bunday tabdil tarjima, ko'pincha, tarjima tilida asliyatdan butunlay farqlanuvchi yangi matnlar yaratilishiga olib keladi. Bunday holat reklama matnlari tarjimasida ko'proq ko'zatiladi. Chunki asliyatdagi reklama matnini mahalliy sharoitdagi xaridorlarning didiga moslashtirishga to'g'ri keladi. Bu jarayonda tarjimonga eng to'g'ri muqobillar tanlashi, asliyatdagi pragmatik potensialdan voz kechishi lozim.

Tarjimonning vazifasi asliyatning kommunikativ holatlardagi o'ziga xosliklarini qayta yaratish bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday o'ziga xosliklar ekvivalentlar orqali tarjima qilishda unchalik ko'zga tashlanmay qolishi muhim bo'lmagan madaniy-etnografik elementlardan tashkil topishi mumkin. Asliyatning bunday pragmatik xususiyatlarini aks ettirish tarjima tili me'yorlarining bo'zilishiga, oqibatda asliyatni so'zma-so'z tarjima qilishga, tarjima tilidagi o'quvchiga notanish unsurlarning kirib kolishiga sabab bo'ladi. Tarjimon pragmatik xususiyatlarni soddalashtirib o'girishga, ya'ni undagi emotsional-stilistik, assotsiativ obrazli aspektlarni e'tibordan chetda qoldirib, "asosiy ma'no"ni berishga urinishlari ham yaxshi natija bermaydi. Bunday tarjima tez fursatda o'quvchini asliyatning asosiy mazmuni bilan tanishtirish maqsadida qilinsagina, o'zini oqlashi, binobarin, u adekvat tarjimaning dastlabki bosqichi sifatida qaralishi mumkin.

Pragmatik xususiyatlarini qayta yaratishda tarjimonning ularni zamonaviylashtirishga urinishi ham asliyat matnning o'zgarib ketishiga olib keladi. Bunda asliyatda tasvirlangan vokea-xodisalar ro'y bergan vaqt va joy bilan tarjimadagi vokea xodisalarining zamoni va makoni bir-biridan butunlay farq qilib qoladi. Tarjimonga, ko'pincha, boshqa tarixiy davrda yaratilgan asarlar tarjimasi bilan shug'ullanishga to'g'ri keladi. Bunday matnning tili, vokea-xodisalarining rivoji hozirgi kitobxonlar uchun unchalik tushunarli bo'lmay qoladi. Bu til taraqqiyoti muayyan zamonda yashagan kishilarning, yozuvchilarning dunyoqarashlari bilan ham bog'liq. Shunday ekan, muayyan tarixiy davrda yaratilgan badiiy asar tarjimasi ham qator muammolarni keltirib chikaradi. Birinchidan, asliyat tilining ma'lum bir tarixiy davrga ta'lluqli ekani tarjimada o'z aksini topishi lozim.

Umuman olganda "hozirgi paytda tarjima muammolarini badiiy tadqiq qilish sifat jihatidan yangi bosqichga qadam qo'ymoqda"¹⁹. Bunday tadqiqot tilshunoslikning tarkibiy qismi bo'lmish tarjimashunoslik fanining lisoniy tahlilning yangi sohasi ekanligini, uning hozirgi zamon umumlisoniy muammo asosida rivojlanishi zarurligini ko'rsatadi.²⁰ Asliyatning kommunikativ teng qiymatliligini ro'yobga chiqarish nafaqat narsa va hodisalar to'g'risida axborot beruvchi nutq vositalarining moddiy-mantiqiy ma'nolarini hamda ularning hissiy-ta'sirchan va obrazli-uslubiy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan majoziy vazifalarini to'g'ri talqin qilishni, balki fikrning til ifodasi bilan muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatini belgilaydigan pragmatik aspektini ham nazarda tutishni talab qiladi.

Tarjimaviy umumlashmalar yaratish uchun turli juft tillar vositalarini qiyosiy o'rganish, badiiy matnning estetik o'ziga xosligini, uning moddiy-mantiqiy hamda hissiy-ta'sirchan va obrazli tizimini tashkil etuvchi unsurlari tarkibidagi mazmuniy-uslubiy va pragmatik xususiyatlarni muayyan qilish stilistik asosga tayanishni taqozo etadi. A. V. Fyodorovning ta'kidlashicha, tilning har bir vositasi

¹⁹ В.Н. Комиссаров. Лингвистика перевода. М., ИМО. 1980. с. 4

²⁰ Halliday M. A. K. The comparison of language. - In: « Patterns of languages» . London . 1966, p. 29 -30 .

ayniqsa badiiy asar tili vositalari to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita uslubiy vazifalar ifodasi uchun xizmat qilishi mumkin: har bir til hodisasi bayon etilgan fikrning ko'lamidan qat'iy nazar ma'lum darajada uslubiy bo'yoq kasb etishi mumkin²¹. Til birliklarining bunday xususiyati tarjima nazariyasini til ma'lumotlarining barcha jihatlarini hisobga olgan xolda, lingvotarjimaviy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladigan qiyosiy stilistika bilan yaqinlashtiradiki, ayni hol turli juft tillar birliklarining mazmuniy-uslubiy va pragmatik jihatlardan o'zaro vazifaviy mos kelish-kelmasliklari to'g'risida hukm chiqarish imkoniyatini yaratadi. Tarjima amaliyotining bunday taxlil va umumlashmalari mazkur sohadagi tasavvur va qarashlarni boyitgani xolda, ayrim amaliy muammolarni hal qilish istiqbollarini belgilash uchun zaruriy materiallar beradi. Ular nafaqat lisoniy, balki til ma'lumotlari tarkibidan tashqarida bo'lgan individual ruhshunoslik, jamiyatshunoslik, etnografik, milliy-tarixiy, hududiy va boshqa qator jihatlarni o'z ichiga oladigan pragmagik, g'ayrilisoniy omillarni, shuningdek, muloqot ishtirokchilarining yuqori saviyador qo'shimcha bilimlarini nazarda tutadi, zero, Ya. B. Kasagrantning ta'kidlashicha, zaruriy ta'sirchanlik tillar tarjimasi yo'li bilan emas, balki madaniyatlar talqini vositasida qo'lga kiritiladi»²².

Ma'lumki, har bir til o'z tizimining barcha bosqichlarida beqiyos xususiyatlarga ega. Binobarin, turli juft tillar orasidagi o'ziga xos xususiyatlarni muayyan qilish tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi, chunki ularning tizimlari orasidagi qonuniy muvofiqlik va tafovutlarni aniqlash turli darajadagi badiiy-tasviriy vositalarning bir tildan ikkinchi tilga tarjimasi qonuniyatlarini belgilash imkoniyatini beradi. Bunday holda ikki til tizimining alohida qiyosiy o'rganish ularning belgilari tizimi orasidagi denotativ konnotativ va uslubiy muvofiqliklarni muayyan qilish, mazmunni va pragmatik muvofiqlik darajalarini aniqlash hal qiluvchi ahammyat kasb etadi. Tabiiyki, bunday paytda til tizimining alohida unsurlari darajalaridagi ekvivalentlik emas, balki badiiy ifoda

²¹ А. В. Федоров. Очерки общей и сопоставительной стилистики. - М.: Высшая школа, 1971. - с. 6.

²² Casagrande J B. The ends of translation. - I.IAL. № 4. New York. 1954. - p. 338.

tarkibida o'z aksini topgan mazmuniy-uslubiy, hissiy-ta'sirchan va pragmatik vazifalar uyg'unligi asos qilib olinadi.

Tillararo muloqotning alohida turi bo'lmish tarjima turli tillar matnlarining mazmunan teng qiymatliligini taqozo etadi. Asliyat va tarjima matnlari mazmunining o'zaro mos kelishi zarurligi ekvivalentlikni tarjimaning asosiy sharti sifatida tan olishni talab qiladi. Bunda "ekvivalentlik" tushunchasi "yaxshi", "sifatli", "bejirim" tarjimani anglatadi. Ammo ekvivalentlik, ana shu ma'noda yana ishlatiladigan "adekvatlik", "tulaqonlilik" tushunchalari har doim ham amaliy nuqtai nazardan o'zini oqlayvermaydi. Alohida so'z yoki ibora tarjimasiga nisbatan mumkin bo'lgan ekvivalentlik shunday mayda unsurlardan tashkil topgan matn tarjimasiga misolida o'zini oqlashi qiyin. Zero, matndan ajratib olingan muayyan lisoniy unurning yaxshi yoki yomon talqin etilgani butun boshli matn haqida tugal fikr bayon qilish imkoniyatini bermaydi. Asar tarjimasining tulaqonli amalga oshirilishi haqidagi fikr kitobxonning ham tarjimonning ham orzusi, xolos. Nafaqat keng jamoatchilik, balki mutaxassislar tomonidan yaxshi baholangan asar tarjimasiga ham to'la-to'kislikka davo qila olmaydi.

Tarjima nazariyasining vazifasi asl nusxa bilan tarjima o'rtasidagi nisbat qonuniyatlarini kuzatishdan, xususiy tarjimaviy hodisalardan hosil bo'lgan xulosalarni ilmiy dalillar asosida umumlashtirishdan, shu yo'l bilan tarjima amaliyotiga ta'sir o'tkazib, uning sifatini yaxshilashga ko'maklashishdan iboratdir.

Tarjima amaliyoti maqbul ifoda vositalarini qidirib topish yo'li bilan muayyan tarjima muammolarini hal qilishda zarur andoza qoida, dalil va isbotlarni tarjima nazariyasidan oladi.

Shunday qilib, ikki til lisoniy-uslubiy hodisalarini qiyoslash orqali asl nusxaning shakl va mazmun birligini tarjimada muqobil lisoniy vositalar yordamida qayta yaratish yo'l va imkoniyatlarini qidirib topish va shu asosda tarjima amaliyotining sifat o'zgarishiga olib keladigan nazariy umumlashmalar yaratish tarjima nazariyasining predmetini belgilaydi.

Tarjima nazariyasining ahamiyati shundan iboratki, u ayrim tarjimonlarning sub'yektiv mayliga, matn tarjimasiga "intuitsiya" yo'li bilan yondashib,

o'zboshimchalarcha ish ko'rishlariga to'siq qo'yadi. Chunki "Tarjima - bu ilhom, yuksak iste'dod va intuitsiya bilan chuqur filologik bilim, tinimsiz lug'aviy mehnat hamda o'rinli ilmiy sharxning qorishmasidan iborat nazariy-ijodiy jarayondir"²³. Zero, xar qanday amaliy faoliyat singari tarjimachilik ham qonuniyatlar joriy qilinishiga va nazariy umumlashmalar yaratilishiga extiyoj sezadi. Bunday qonuniyat va umumlashmalar, o'z navbatida, kengroq miqyosdagi xulosalarga olib kelgani holda, ularni qator tarjimaviy hodisalarga tatbiq etishga da'vat etadi.

Har bir badiiy yodgorlik muayyan bir davrda sodir bo'lgan voqeaodisalarni tasvirlaydi. Shunga ko'ra, tarixiy mavzuda bitilgan asar hozirgi zamon kitobxonini xalq hayotining tarixi bilan tanishtiradi. Tabiiyki, bunday asar davr ehtiyojiga muvofiq tarzda had-hisobsiz tarixiy va arxaik lisoniy vositalar bilan to'lib-toshgan bo'ladiki, ular kitobxon ko'z oldida davr ruhini, nafasini jonlantirish bilan birga asarning badiiy-estetik ta'sirchanligini ham oshiradi. Asliyat ruhini bekami-ko'st qayta yaratish mas'uliyati tarjimon oldiga til vositalarini asliymonand istifoda etish yo'li bilan asar yaratilgan davr ruhini haqqoniy talqin etish vazifasini qo'yadi.

Asliyat yaratilgan davr tarjima amalga oshirilgan paytdan odatda ma'lum darajada farq qiladi. Shuning uchun ham asliyat ruhini to'la-to'kis qayta yaratish mas'uliyati tarjimondan zaruriy lisoniy vositalarni to'g'ri tanlash yo'li bilan asliyat vujudga kelgan davr xususiyatini qayta yaratishni talab etadi. Asliyatning "arxaik" xususiyati tarjimada zamonaviy so'z va iboralardan muqobil vositalar sifatida foydalanish imkoniyatini bermaydi. Shu bilan birga tarjima amalga oshirilgan davr kitobxonga yaqin tushunarli bo'lishi lozim. Chunki tarjimon asarni o'z davri kitobxoni mutolaasi uchun o'giradi.

Bir so'z bilan aytganda, tarjimada shunday lisoniy vositalardan foydalanish kerakki, hosil bo'lgan matn kitobxonga yaxshi tushunarli bo'lsin va shu bilan birga asar yaratilgan davr uning ko'z oldida jonlanib tursin. Buning ma'nosi shuki, tarjimada tilning arxaik va tarixiy qatlamlariga murojaat qilishda suiste'mollikka yo'l qo'ymasdan, ulardan kitobxonda asar yaratilgan davr to'g'risida tasavvur

²³ Саломов. Таржима ташвишлари. Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 1983, 149-150 бетлар.

hosil qilish mumkin bo'lgan darajada foydalanish zarur. Chunonchi, tarixiy voqea-xodisalar tasviriga bag'ishlangan asarlar tarkibida qo'llanilgan xalqlar tarixiy-milliy turmushi tushunchalarini aks ettiradigan lisoniy vositalarni tarjimada ijodiy, asliyat ruhiga mos tarzda talqin etish bilan bir qatorda goho ularni zamonaviylashtirishga intilish hollari ham uchrab turadi. Bu hol ko'p tarjimonlarning o'z tillaridagi tarixiy va arxaik so'zlardan yaxshi xabardor bo'lmasdan, tarjima jarayonida mavjud ikki tilli lug'atlargagina suyanib ish ko'rishlari bilan bog'liqdir. Mazkur lug'atlar esa asosan tilning hozirgi davr so'z boyligini qamrab olishlari sababli aksariyat hollarda tarixiy-milliy xususiyat tasvirini yaratishga ojizlik qiladilar.

Tarixiy asarlar ruhini tarjimada tiklash uzoq o'tmishda yaratilgan badiiy yodgorlikni boshdan oyoq o'sha davrga xos "til"da tasvirlab berish lozimligini bildirmaydi. Olti-etti yuz yil muqaddam bitilgan asarni nafaqat o'zga tillar vakillari, balki asliyat sohibi bo'lmish xalq vakillarining ham zo'rg'a tushunishi tabiiy xol. Davr xalq tiliga ham o'z muhrini bosadi. Demak, davr bo'yog'ini qayta yaratish maqsadida uzoq o'tmishda yaratilgan asarni shuncha yillar oldingi "til"da o'girish asarni hozirgi zamon kitobxonidan uzoqlashtirib quyadi. Vaholanki, har qanday asar uning qaysi davrda yaratilganidan qat'iy nazar hozirgi davr tiliga o'giriladi.

Davr bo'yog'i esa asar yaratilgan zamon lisoniy unsurlari ishtirokida tiklanadi. Asar tili, u yaratilgan davr tilining intiqosi sifatida, hech qachon o'zgarmasa, tarjima tili vaqt o'tishi bilan eskiradi, ma'lum muddat o'tgach, asarni yana keyingi davr "til"iga, kitobxon talabiga moslab, qayta tarjima qilish ehtiyoji tug'iladi.

Shunday qilib, har bir badiiy yodgorlik muayyan davr va xususiyat tasviriga bag'ishlanar ekan, tarjimon zimmasiga o'sha ruhni asliymonand tarzda aks ettirish mas'uliyati yuklanadi. Tarjima jarayonida ushbu talabga rioya qilmasdan, iste'moldagi lug'atlarga tayanib ish ko'rish adekvat tarjima yaratish tamoyiliga zid holda, muallif matnini zamonaviylashtirib qo'yishga olib kelsa, milliy xususiyatli lisoniy vositalarni beasos shunday xususiyatdan xoli bo'lgan birliklar yoki tarjima

tili sohiblariga xos lisoniy vositalar bilan almashtirib talqin etish muallif matnini milliy asosdan mahrum etadi.

Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy vositalar xos so'zlar, deyiladi. Muayyan bir xalq, millat va elatga xos tushuncha narsa va hodisalarni aks ettiradigan lisoniy vositalar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi. Demak, har qanday badiiy-g'oyaviy barkamol asar o'zida birday ham baynalmilallikni, ham milliylikni mujassam etishi bilan ajralib turadi. Baynalmilallik asarning mazmuni va g'oyasida, milliylik esa uning shaklida namoyon buladi. Badiiy asarning shakli qator jihatlari bilan birga uning tilini, xususan lug'at tarkibini o'z ichiga oladi: asarning milliy xususiyati asosan leksik va frazeologik birliklar yordamida yaratiladi.

Xalqlar turmush tushunchalarini ifoda etadigan lisoniy vositalar tarjimasida bo'yicha hanuzgacha bizda ham, xorijiy mamlakatlarda ham tarjima amaliyoti ravnaqi uchun ozmi-ko'pmi xizmat qilishi mumkin bo'lgan jiddiy tadqiqotlar yaratilmaganligi tufayli mazkur mavzuga oid qator masalalar o'zining ilmiy-yamaliy yechimini kutmoqda. Tarjimonni xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan xos so'zlar ma'no va shakllaridan ko'ra ko'proq ularning muayyan kontekstlarda o'tab keladigan vazifalarini qayta yaratish masalasi mashg'ul qilmog'i darkor. Bu san'atkorni asl nusxadagi xos so'zlarni beasos tarjima matniga ko'chirish yoki mumkin bulmagan takdirda xam ularni tarjima tilidagi xos so'zlar bilan almashtirib qo'yish xavfidan saqlab qoladi. Tarjima amaliyotiga vazifaviy uyg'unlik nuqtai - nazaridan yondashish asliyatdagi bunday ifoda vositalarining hajm, vazn, miqdor, hislat, xususiyat va vazifa aniqligini qayta yaratadi, shu bilan birga tarjimaning keng kitobxon ommasiga yaxshi tushunarli bo'lishiga erishish imkoniyatini beradi.

Xos so'zlarni ona tiliga o'girishda avvalo ularning muayyan kontekstlarda o'tab kelayotgan axboriy va uslubiy vazifalarini aniqlash, so'ngra tarjima tilida ularga har jihatdan mos, ayni paytda shu til me'yori va madaniyati darajasidagi lisoniy vositalar tanlash zarurati tugiladi.

Xulosa qilib aytganda, asliyat sohiblari turmush tushunchalarini aks ettiradigan lisoniy vositalarning tarjima tilida uchramasligi, tarjima tili vositalarining esa asliyatdagi shartli muqobillaridan xislat xususiyat, yoki shakl-hajm jihatidan o'zgacharoqligi, ularga mutlaqo o'xshamasligi mazkur tillar vositalarini tarjimada bir-birlari bilan almashtirish imkoniyatini bermay, tarjimonni transliteratsiya usuliga murojaat qilishga da'vat etadi. Ammo ushbu usuldan barcha mushkuliylar holatlarda foydalanaverib bo'lmaydi: tarjima tili lug'at tarkibi uchun begona lisoniy vositalar ko'pincha bayon etilgan fikr haqida to'g'ri tasavvur yaratishga ojizlik qilgani holda, tarjima tili madaniyatiga putur etkazadi. Bunday paytlarda muammo tarjima amaliyotining boshqa qator usullari, jumladan ikki til lisoniy vositalarining vazifaviy uyg'unligini qayta yaratish orqali amalga oshiriladi. Ko'shimcha vazifali "gapiruvchi" nomlar, diniy-tarixiy va afsonaviy shaxslar hamda g'ayritabiiy kuchlar, diniy-tarixiy kitoblar nomlari tarjimada ikki til vositalarining vazifaviy uyg'unlikdan tashqari, yana har qaysi tilda qabul qilingan shakllari hamda talaffuz an'analarini hisobga olishni ham taqozo etadi.

I Bob bo'yicha xulosalar

1. Mustaqillik yillarida yaratilgan asarlar xorijiy tillarga bevosita asliyat tilidan tarjima qilina boshlagani quvonchli hol. O'z navbatida istiqlol davri ijtimoiy-siyosiy atamalarining lug'atlari paydo bo'la boshladi. Sobiq Ittifoq davrida yaratilgan lug'atlar hozirgi mustaqillik davri leksikasi uchun ojizlik qilmoqda. Ularda o'z davri mafkurasini targ'ib qiluvchi va milliy istiqlol g'oyasiga zid bo'lgan so'zlar joy olgani bois, bugungi kunimiz uchun mafkuraviy jihatdan eskirgan hisoblanadi, biroq ulardan sof ilmiy va tadqiqot manbasi sifatida foydalanish ehtiyoji bor.
2. Tarjimada asarda ilgari surilgan g'oya, ma'noni aks ettirish bilan bir qatorda muallif uslubini ham muqobil tarzda ifodalash talab etiladi. Muallifning mehnat mahsulini tarjimon ham to'la anglay bilishi, shunga yarasha zahmat chekishi, qolaversa, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga muallif ko'zi bilan qarashga intilishi zarur.

3. O'zbek tilida nutqni, biror-bir xabar yoki yozma axborotni bayon qilishda tilda mavjud bo'lgan hissiy-ekspressivlikni hosil qiluvchi vositalar muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-siyosiy asarlarda qo'llangan bunday birliklarni bir tildan boshqasiga o'girishning o'ziga xos talab va qoidalari mavjud. Jumladan, tarjimon, avvalo asliyat tilini, asar mohiyatini, muallif uslubi, nozik ifoda usullarini mukammal o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Tadqiqot ishini yozish jarayonida Prezidentimiz asarida ishlatilgan metaforalar, ularning ingliz tiliga tarjimasi tamoyillarini qiyosiy tahlildan o'tkazdik. Har bir faslda tegishli xulosalar chiqardik. Umumnazariy g'oyalarni olg'a surdik. Asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasida tarjima tamoyillariga asoslangan holda ish yuritilib, muallif tomonidan bildirilgan fikrlar va uning uslubini tarjimada saqlab qolishga imkon qadar erishilganligining guvohi bo'ldik.

II BOB. TARJIMANING NUTQ MADANIYATIGA TA'SIRI

2.1 Tarjima va kontekstning g'oyaviy-badiiy mazmuni

Tarjimonning vazifasi asliyatning kommunikativ holatlardagi o'ziga xosliklarini qayta yaratish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday o'ziga xosliklar ekvivalentlar orqali tarjima qilishda unchalik ko'zga tashlanmay qolishi muhim bo'lmagan madaniy-etnografik elementlardan tashkil topishi mumkin. Asliyatning bunday pragmatik xususiyatlarini aks ettirish tarjima tili me'yorlarining buzilishiga, oqibatda asliyatni so'zma-so'z tarjima qilishga, tarjima tilidagi o'quvchiga notanish unsurlarning kirib qolishiga sabab bo'ladi.

Masalan:

Asliyatda: He is running down the street

Tarjimada: U ko'chada chopib borayotganda bor²⁴

Asliyatda: He is as cool as a cucumber

Tarjimada: U bodring misol sovukkon²⁵

deb ugirilsa, asliyat tilining ham, o'zbek tilining ham o'ziga xos xususiyatini xisobga olmasdan qilingan so'zma-so'z tarjimaning o'zginasi bo'lib qoladi. Ingliz tilidagi xos mazmunli bunday jumalarning so'zma-so'z tarjimasi ingliz tilidagi qurilmani o'zbek tiliga xuddi o'ziday berish imkoniyati yo'qligidan dalolat beradi.

Tarjimonning asliyatdagi xususiyatlarni soddalashtirib o'girishga, ya'ni undagi emotsional-stilistik, assotsiativ obrazli aspektlarni e'tibordan chetda qoldirib, "asosiy ma'no"ni berishga urinishlari ham yaxshi natija bermaydi. Bunday tarjima tez fursatda o'quvchini asliyatning asosiy mazmuni bilan tanishtirish maqsadida qilinsagina, o'zini oqlashi, binobarin, u adekvat tarjimaning dastlabki bosqichi sifatida qaralishi mumkin.

Asliyatning pragmatik xususiyatlarini qayta yaratishda tarjimonning ularni zamonaviylashtirishga urinishi ham asliyat matnning o'zgarib ketishiga olib keladi. Bunda asliyatda tasvirlangan voqea-hodisalar ro'y bergan vaqt va joy bilan

²⁴ Саломов Г. Адабий анъана ва бадий таржима. - Тошкент: Фан, 1980. - 160 с.

²⁵ Саломов Г. Адабий анъана ва бадий таржима. - Тошкент: Фан, 1980. - 160 с.

tarjimadagi voqea hodisalarning zamoni va makoni bir-biridan butunlay farq qilib qoladi. Tarjimonga, ko'pincha, boshqa tarixiy davrda yaratilgan asarlar tarjimasi bilan shug'ullanishga to'g'ri keladi. Bunday matnning tili, voqea-hodisalarining rivoji hozirgi kitobxonlar uchun unchalik tushunarli bo'lmay qoladi. Bu til taraqqiyoti muayyan zamonda yashagan kishilarning, yozuvchilarning dunyoqarashlari bilan ham bog'liq.²⁶ Shunday ekan, muayyan tarixiy davrda yaratilgan badiiy asar tarjimasi ham qator muammolarni keltirib chiqaradi. Asliyat tilining ma'lum bir tarixiy davrga taalluqli ekani tarjimada o'z aksini topishi lozim.

Bunday holatda ona tilida mavjud bo'lgan, kam ishlatiladigan, biroq kitobxonlarga tushunarli bo'lgan ayrim tarixiy, arxaik so'zlardan foydalanish zarurati vujudga keladi. Ammo bu arxaizmlar, ayni paytda, tarjima tiliga xos milliy xususiyatlardan xoli bulishi, ya'ni usluban neytral bo'lish talab qilinadi. Tarjimada eskirgan so'zlardan foydalanishdan tashqari, asliyat matnning arxaikligini ta'minlash maqsadida tarjimon til va madaniyatning hozirgi bosqichiga xos, ammo asliyatda tasvirlangan davrga mansub bo'lmagan so'zlardan foydalanishda ham ehtiyotkor bo'lish talab qilinadi. Masalan, asliyatda XVIII asr voqealari aks etgan bo'lsa, personajlar xizmat safariga borishlari, ishlab chiqarishdan tashqari biror narsa bilan shug'ullanishlari, ish vaqtida boshqa ish bilan mashg'ul bo'lmasliklari, muammolarni yechishlari, tor doiradagi mutaxassislikka ega bo'lishlari, kadrlar tanlash muammolari bilan shug'ullanishlari, oshirilgan majburiyat olishlari, musobaqa g'olibi bo'lishlariga oid zamonaviy fikrlarni kiritmasliklari lozim.

Amaliyotda yana shunday holatlar uchraydiki, tarjimon o'zi yashab turgan ijtimoiy-siyosiy muhit talablariga rioya qilgani holda, matnga siyosiy, ma'rifiy, madaniy, iqtisodiy yoki shaxsiy maqsadlarda muayyan o'zgartishlar kiritishi mumkin. Ammo asliyat mazmuni butunlay yo'qqa chikariladi. Siyosiy targ'ibot maqsadida asliyatdan foydalanib yaratilgan tarjima yangi matn sifatida gavgavdalanadi.

²⁶Юсупов У. Инглиз ва ўзбек тилларининг чоғиштирма лингвистикаси. -Т.: Akademnashr, 2013. - 180 б.

Tarjimadagi uslubiy muammolar ikki til matnlarining janrlarga ko'ra muvofiq kelishini taqozo etmaydi. Shuning uchun tarjimada asliyat vositalariga vazifaviy uyg'un til birliklari tanlash muammosini o'rganish masalasi muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Demak, qiyosiy stilistika asliyat va tarjima tillari lisoniy-uslubiy vositalarini qiyosiy tahlil qilish orqali tarjima amaliyotini umumlashtirish vazifasini qo'yib, tarjima matnning asliyatga moslik darajasini belgilash uchun xizmat qiladi.

Metafora - ikki narsaning ayrim tasodifiy belgilariga, bu belgilarning o'xshashligiga asoslangan ifoda usulidir. U lug'aviy-mantiqiy va ko'chma-matniy ma'nolarning o'zaro munosabatiga asoslanadi. Masalan, "til" o'z va ko'chma ma'noda qo'llangan birikmalarni ko'rib chiqamiz: issiqdan itning tili osilgan (o'z ma'nosida); soatning tili, ko'ng'iroqning tili (ko'chma ma'nolarda).

Metafora ingliz tilidagi gazeta uslubida juda ko'p qo'llanadi. Tarjimada esa ularni hamma vaqt ham metafora shaklida berish qiyin kechadi. Asliyatda mantiqan erkin ma'nodagi so'zlar yordamida bayon etilgan fikr tarjima tilida har xil lug'aviy ma'noga ega lisoniy vositalar-asliyatdagi vositaga moddiy jihatdan yaqin hamda undan leksik tarkibi bilan farq qiladigan til birliklari yordamida ifoda etiladi.²⁷

Kontekstual sinonimik qatorni tashkil etadigan bunday variantlarning moddiy jihatdan asliyatdagi birlikka yaqini ko'proq o'zga tillar ta'sirida hosil qilingan bo'ladi. Uning nutqda, xususan, tarjimada uchrashi, so'zlarning o'zaro birikuvi, fikrning me'yor doirasida ifoda etilishi nuqtai nazardan hech qanday e'tirozga sabab bo'lmaydi. Undan leksik tarkib jihatidan farq qiladigan birikma esa, asosan, azaldan tarjima tilining 'mulki' hisoblanadi. Tarjimada aynan shu variantga murojaat qilish tarjima tilining tabiiyligini yuzaga keltiradi. Chunki bu yo'l nafaqat fikrning to'g'ri talqin etilishini, balki ifodaning sof o'zbekona jarangdorligini ham ta'minlaydi. Masalan, rus kishisi farzand ko'rmagan odamga nisbatan "он был бездетен" birikmasini ishlatsa, o'zbek jo'ngina qilib, u

²⁷ Гафуров И. Таржимонлик мутахассислигига кириш. Ўқув кулланма. -Т.: Мехридарё, 2008. - 97 б.

befarzand edi deyishi mumkin. Ifoda xech qanday e'tirozga sabab bo'lmaydi. Ammo ona tili nozikliklarini biladigan o'zbek bunday noqulay vaziyatda u tirnoqqa zor edi iborasidan foydalanishni afzal kuradi.

Piter Abrahamsning "Qabrdagi gulchambar" romani personajining shikoyatomuz ohangda aytgan:

Asliyatda: I didn't sleep last night

Tarjimada: Kecha mutlaqo uxlamagan edim²⁸

Gapini o'zbek tiliga moddiy jihatdan aniq o'girish ham tabiiy jaranglagan bo'lar edi. Ammo tarjimon o'z mas'uliyatiga ijodiy yondashib, mazkur fikrning sof o'zbekcha bayoni haqida uylashi jumlaning og'zaki nutqqa xos Kecha mijja qoqmagan edim shaklidagi ajoyib talqinini yuzaga keltirgan:

Asliyatda: It gave me chance to sleep, I didn't sleep last night.

Tarjimada: Xechqisi yo'q, qaytanga uxlab oldim, kecha mijja qoqmagan edim.²⁹

Shunday qilib, barcha unsurlari o'z ma'nosida qullanilgan so'z birikmalari va xatto jummalarni tarjima qilishda ham moddiy aniqlik yo'lidan borish hamma vaqt ham kutilgan ta'sirchanlikka olib kelavermaydi. Pragmatik mutanosiblikka erishishda asliyat matn birliklari tarjimasiga ijodiy yondashish, tarjima tilida mavjud sinonimik variantlarning qaysi biri ushbu holatga ko'proq mos kelishini aniqlash zarurati tug'iladi. Zero, muayyan fikr asliyat tilida bir ifoda yordamida bayon etilsa, tarjima tilida moddiy jihatdan o'zgacha ifoda vositasi orqali maqbulroq aks ettiriladi. O'z ona tilida juda ko'p so'z boyligiga ega mohir tarjimon, odatda, lug'aviy muqobillikdan ko'ra vazifaviy uyg'unlikka ko'proq e'tibor berib, badiiy matnning estetik xususiyatini qayta yaratadi. Shunday hol, ayniqsa, dialogik nutq tarjimasida misolida yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Bu, xususan, madaniyat darajasi va bilim saviyasi bilan bir-biridan ajralib turadigan personajlar nutqi tarjimasida ko'proq namoyon bo'ladi. Shunday qilib, tarjimon nafaqat muayyan uslubiy vazifa ifodasi uchun qo'llangan obrazli yoki xissiy-

²⁸ Саломов Г., Комилов Н. Таржимон махорати. - Тошкент: Фан, 1979,- 196 с.

²⁹ Саломов Г., Комилов Н. Таржимон махорати. - Тошкент: Фан, 1979,- 196 с.

ta'sirchan lisoniy vositani, balki amaliy jihatdan qiyinchilik tug'dirmaydi deb tasavvur qilinadigan erkin ma'nodagi u yoki bu so'z yoxud so'z birikmasini o'g'irishda ham har doim o'sha vosita mazmunini tarjima tilida qanday so'z yoki so'z birikmasi aniqroq va to'laroq ifoda etishi mumkinligi, mavjud variantlardan qaysi birining asliyat ruhiga ko'proq mos kelishi haqida uylashi va doim o'z oldiga nazarda tutilgan fikrni qay tarzda yanada ravonroq bayon etish mumkin degan savolni qo'yishi zarur.

Mehmonni taomga taklif etayotgan rus kishisi: “Пропшу к столу!” - deydi. Ammo o'z ona tilidagi so'z boyligi ko'p va o'zi mansub xalq an'anasidan yaxshi xabardor o'zbek taomning stol ustiga tortilgan bo'lishiga qaramasdan, mehmonga: “Marhamat, dasturxonga!” - deya lutf qiladi.

O'zbek tilida “hali bunisi holva” degan frazeologik birlik mavjud bo'lib, u, asosan, biror azob-uqubatning kelajakda muqarrar tarzda sodir bo'ladigan tashvish va uqubatlarda oldida arziyas ekanligini obrazli ifoda etadi. Shu fikr ingliz va rus tillarida erkin ma'nodagi so'zlar yordamida bayon etilgan ekan, o'zbek tilida ham uni shu tariqa ifoda etish imkoniyati mavjud. Ammo muqobil nutqiy vaziyatlarda o'zbek tilida, odatda, quyidagi misol tarjimasidagidek, eslatilgan frazeologizmdan foydalanish tabiiy o'zbekona jarangdorlikni yuzaga keltiradi:

- Does that sting? Good, that's nothing to how it will feel later. The pain hasn't started yet.
- Nima, kuydiryaptimi? Bunisi holva. Hamma hunarini keyin ko'rsatadi.

Badiiy matn asl nusxani o'qiy olmaydigan kitobxonning til bilmasligi sababli uni yozuvchining asarlari bilan tanishtirish maqsadida tarjima qilinadi. Bu holda badiiy asarning qayta yaratilishi uchun, birinchi navbatda, matnning badiiy aspekti qayta yaratilishi talab qilinadi.

Aynan shunday xolatda matnning milliy-madaniy mazmuni shu o'rinda namoyon etilmoqda. Sababi, badiiy tasvir har doim bir tarzda, muallif va o'quvchi uchun umumiy bo'lgan g'oyalar, adabiy, tarixiy, madaniy tushunchalar, ma'lum bir qadriyatlar tizimi (ular buni qabul qila oladimi, olmaydimi, lekin, baribir, bu ularning ongida mavjud). **Tarjima jarayonida so'zlar emas, tushunchalar tarjima**

qilinadi.³⁰ Bu asos buzilishi oqibatida tasvir vayron etiladi. Faqat muhim ahamiyatga ega tushuncha va so'zlarning bog'liqligi vizual yoki okkazional tasvirli ma'noni ramziy aks ettiradi. Bularning hammasi tarjimada jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi, chunki tarjimani o'qiyotgan o'quvchi boshqa bir madaniyat egasi bo'lib, u boshqa muhitdagi bilimlar tizimiga, boshqa bir tushunchaga tayanadi. Umuman olganda, badiiy asar tarjimasini o'qiyotgan kitobxon bilan asl matnni o'qiyotgan o'quvchining fikri to'g'ri kelmaydi. Agarda badiiy asar muallifi, odatda, ongli yoki ongsiz ravishda o'z asarini aynan bir auditoriyaga qaratsa, bunda tarjima aloqalarining yo'qolishi bundan mustasnodir, madomiki, bunday o'quvchilar boshqa madaniyatdan bo'lishi mumkin emas. Tasviriy tizimning bir madaniyatdan boshqasiga o'tkazilishi tarjimada qarama-qarshi natijalarga olib kelishi mumkin.

Shunday voqealar borki, yozuvchi va uning ijodiy usuli va uslubi bir madaniyatga asoslangan bo'lsa, keyinchalik u boshqa madaniyat vakillari uchun boshqa tilda yoza boshlagan xolatlar ham mavjud. Agar yozuvchida ikki tilda yozish imkoni bo'lsa, ikkinchi tilda badiiy asar yoza oladigan darajaga ega bo'lsada, lekin u yozma va ijodiy fikrlash tizimini saqlab, chet tilida o'quvchi notanish uslubni muallifning individual usuli deb hisoblashi mumkin. Bunga asos qilib, aynan shu sabab yuzasidan V. Nabokovning amerikalik tanqidchilar tomonidan yuqori baholangan ingliz tilidagi nasriy asari hozirda dunyoni obrazli aks ettirgan. Ingliz tilidagi o'quvchilar uchun tasvirlangan voqealar odatdan tashqari hisoblanib, tushunchalar yigindisi rus tilining va badiiy fikrning aks ettirilishi emas, balki V. Nabokovning o'ziga xos uslubi sifatida tanildi. Boshqa tomonga nazar soladigan bo'lsak, bunday matnlar mualliflar tomonidan qo'llanilgan so'zlarning denotativ ma'nosi tasvirni butunligicha ochib bera olmasligi tufayli o'quvchilar buni qabul qila olmaydi, chunki shu til egalari uchun butunlay boshqa tushuncha uyg'onadi. Bu tushunmovchiliklar, asosan, she'riy matnlarni boshqa tilga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladi.

³⁰ Шарипов Ж. Бадий таржималар ва таржима назарияси. - Т., 1972.

Birinchidan, she'riy matnda ta'sir o'tkazish funksiyasi xabar berish funksiyasidan muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan, she'riyatda bir necha bor til formasinig roli kengayadi. She'riy matnlar (asosan, kichik she'rlar) har bir so'zida ma'nolarning yuqori darajada moslashuvining paydo bulishi ma'no va mazmundan tashqari, har bir so'z, matnning ichki va tashqi ma'nolarining bir-biri bilan aloqasi, bir so'zning noto'g'ri tarjimada qo'llanilishi butun bir she'rning ma'nosini buzishga olib keladi.

Shuning uchun she'riyatda tarjima mukammal bo'lmaydi. Bizning chet el shoirlari haqidagi fikrimiz, asosan, o'zimizning shaxsiy tarjima iste'dodimiz orqali namoyon bo'ladi. Ko'pincha, kitobxon muallifning ijodi xususida ma'lum bir tushunchaga ega bo'lmay turib, nafaqat uning shaxsiy ijodiy uslubini, balki tarjima sohasidagi ijodiy uslubini ham anglaydi. Bu, o'z navbatida, tarjimonning jiddiy, lekin ruhan mutlaqo to'g'ri ta'rifini tasdiqlaydi: "tarjima uchun berilishi lozim bo'lgan barchasi tarjimadir".

Asl asarni o'qiy olmagan o'quvchi tarjima qilingan asarda xuddi o'ziday berilganiga ishonadi va shu tarjima orqali muallifni tanqidga olishga majbur. Hatto iste'dodli tarjimon tarjimasi ham shoirning tasviridan o'zgacha bo'ladi. Muammoning asl mohiyati ham shunda.

Yuqorida aytilganidek, badiiy tarjimada asl muallifdan to tarjimani qabul qiluvchilargacha yo'l uzoq va murakkab.

Har bir tarjima muayyan muqobilliklardan biriga bog'liq bo'ladi. Muqobillikning oxirgi turi juda yuqori darajadagi semantik o'xshashlikni bersada, har qanday tarjima muqobillikning bir necha bosqichlarida yaratiladi deyishimiz mumkin. Har bir bosqichda tarjima oldingi bosqichdagi ma'lumotni saqlash xususiyati bilan ajralib turadi. Tarjima turlari bo'yicha xususiyatlar saqlanish boskichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: muloqot maqsadi, vaziyatni aniqlashtirish, tasvirlash usullari, sintaktik strukturaning yaxlitligi va semantik ma'no.

Turli bosqichlar xususiyatini ifodalayotgan ma'lumot nutq so'zlariga bog'liq emas. Aksincha, nutq so'zlari ularga bog'liq bo'ladi va aniq vaziyatni belgilaydi,

mazmuniiy strukturani qamrab oladi va so'zlar qatorining sintaktik modelini hosil qiladi. Muqobilliklar tarjimaning muayyan bosqichida tugallangan bo'lsa-da, tarjimaga pog'onali yondashuvni ma'qullash yoki ma'qullamaslik fikrini bildirmaydi³¹.

Ba'zi manba tili birliklarining tarjima tilida doimiy muqobillari mavjud. Boshqacha aytganda, bunday birliklar va ularning muqobillari o'rtasida o'ziga xos moslashuv bo'ladi. Shuning uchun ingliz tilidagi London so'zi o'zbek tiliga London, hydrogen so'zi vodorod deb tarjima qilinadi. Bunday moslashuvlar, odatda, ma'nosi asosiy kontekstdan ma'lum darajada mustaqil bo'lgan ilm-fan va texnikaga oid atamalarda, atoqli ot, jugrofiy nomlar va shunga o'xshash aniq xususiyatlarga ega so'zlarda uchraydi.

Manba tili va tarjima tili birliklarining bir necha mos muqobil birliklari bo'lishi eng ko'p uchraydigan holatdir. Manba tilida doimiy bo'lmagan xar xil muqobilliklarning mavjud bo'lishi unda lisoniy birliklar qanday ishlatilganligini, bu birliklarning tarjima tilidagi muqobillari bilan farqlarini hisobga olgan holda ulardan birini tanlab, mos joyda ishlatish zaruriyatini taqozo qiladi. Til birliklarining turiga qarab, muqobilliklar leksik, frazeologik yoki grammatik darajada tasniflanishi mumkin.

Ikki tildagi muayyan unsurlarning (so'z, so'z birikmasi, grammatik kategoriya) bir yoki undan ortiq komponentlari bir-biriga qisman mos kelishi mumkin, ammo hech qachon to'liq mos kelishi uchramaydi. Mos muqobillikni tanlash ma'lum bir semantik elementning kommunikatsiya paytidagi muayyan ma'noga tegishlilikiga bog'liq bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi *ambitious* (shuhratparast, intiluvchan) so'zi bir vaqtning o'zida ham maqtovga sazovor, ham noto'g'ri, yomon maqsad va niyatlarni amalga oshirishga intilishni bildirishi mumkin. Bu so'zning tarjimasi aytib o'tilgan ma'nolarning qaysi biriga to'g'ri kelishiga bog'liq. Shuning uchun:

Asliyatda: *the ambitious plans of conquerors*

³¹ Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода. - Москва, 1980. - 167 с.

Tarjimada: *bosqinchilarning amalga oshmaydigan rejalari*

Asliyatda: *the ambitious goals set by United Nations*

Tarjimada: *BMT tomonidan qo'yilgan buyuk maqsadlar*³²

Manba tiliga tegishli bitta tushuncha tarjima tilida bir-biri bilan bog'lanmagan muqobilliklarga mos kelishi ham ko'p uchraydigan holatdir. Masalan, ingliz tilidagi *attitude* so'zi o'zbek tiliga muayyan bir muloqot xolatida tanlab ishlatilishiga ko'ra *munosabat*, *tarafdorlik*, *siyosat* deb tarjima qilinadi. Bu tarjima tilida mavjud muqobilliklar orasidan mosini tanlab olish uchun asos bo'ladi.

Manba tili birliklarining muqobillari tarjima tilida mavjud bo'lsada, ularni doimiy tarzda tarjima matnda ishlatish imkoniyati mavjud emas. Muqobillik juda muhim "o'rinbosar" almashtiruvchi hisoblanib, ko'p jihatdan tarjimonning muqobil birlikni tanlay olishi va manba matnidagi birliklarning kontekstdagi o'rniga bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, kontekstning ikki turi mavjud:

- 1) lingvistik (lisoniy)
- 2) situativ (vaziyat) kontekst

Lingvistik kontekst manba matndagi boshqa til birliklari orqali yasalsa, situativ kontekst manba matn yuzaga kelgan zamon va makon sharoitlarini hamda yetkazilayotgan xabarni retseptor qoniqarli darajada tushunib olishi uchun bilishi kerak bo'lgan faktlarni o'z ichiga oladi.

Tarjimon manba tili birliklariga tegishli lingvistik va situativ kontekstlarning to'g'ri tahlilini amalga oshirish orqaligina tarjima tiliga mos muqobillik tanlay oladi hamda ushbu birliklarning mos ma'nosini o'z o'rniga qo'yadi. Masalan, tarjimon quyida keltirilgan uchta misolda lingvistik kontekst yordamida ingliz tilidagi "attitude" otiga o'zbek tilida mos keladigan muqobilni to'g'ri tanlab ishlatadi:

- 1) I don't like your attitude to your work.
- 2) There is no sign of changes in the attitude of the two sides.

³² Саломов Ф. Таржима ташвишлари. - Тошкент: Ф. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. - 192 с.

3) He stood there in a threatening attitude.

Yuqoridagi misollardan birinchisida “attitude” soʻzini oʻzbek tiliga munosabat (ishga), ikkinchisida pozitsiyasi (tomonlarning), uchinchi misolda esa holat (tahdid soluvchi) deb tarjima qilinishi maqsadga muvofiq. Vaziyat (situativ) konteksti aniq ifodalanmagunga qadar, koʻpincha, munosib muqobil topa olmaymiz. Agar manba matnda biron kishiga nisbatan “an abolishionist (biror holat yoki narsaga chek qoʻyish tarafdori)” atamasi ishlatilsa, tarjimada ushbu atama oʻrniga muqobil tanlash talablari zamon va makonga qarab turlicha boʻlishi mumkin. Abolitsionistlar har xil tarixiy davlatlar va davrlarda quldorlik, taʼqiqlovchi qonunlar hamda oʻlim jazosini cheklash tarafdorlari boʻlishgan. Shunga koʻra, kontekstdan kelib chiqib, abolitsionist atamasi oʻzbek tilida muayyan qonun yoki oʻlim jazosini bekor qilish tarafdori deb tarjima qilinishi mumkin.

Manba tilida koʻp miqdorda aniq muqobilliklar mavjud degan tushuncha ulardan biri, albatta, qandaydir konkret holatda ishlatiladi degan maʼnoni bildirmaydi. Toʻgʻri, koʻp hollarda bu muqobilliklar orasidan eng mosini tanlab ishlata olish qobiliyati orqali tarjimonning malakasi toʻliq namoyon boʻladi. Lekin kontekst tarjimonga hamisha ham muayyan muqobil birlikni olib ishlatishga yordam beravermaydi. Bunda birliklarning maʼnosini toʻgʻriroq etkazib bera oladigan tarjimon oʻsha davrning oʻzida yaratilgan muqobillarni ishlatib, tarjima qilish usulini qoʻllaydi. Manba tili birliklarining aniq bir kontekstga mos keladigan bunday tarjimasi vaziyatga koʻra muqobillik yoki kontekstga bogʻliq muqobillik deb taʼriflanishi mumkin.

Muayyan kontekstdagi holat tarjimonni doimiy muqobillikni ishlatmaslikka ham majbur qilishi mumkin. Jugʻrofiy nomlarning shunday muqobillari borki, ular chet tiliga xos nomning tarjima tilida bir xil transkripsiya qilinishi orqali kelib chiqqan. Masalan, AQSHning Konnektikut shtati “New Haven” shahri oʻzbek tiliga oʻzgarishsiz, Nyu Xeyven deb tarjima qilinadi. Biroq “He graduated from New Haven in 1975” doimiy muqobillik bilan tarjima qilinmaydi, chunki oʻzbek oʻquvchisi Nyu Xeyven shahri oʻzining Yeyl (Yale) universiteti bilan

mashhurligini bilmasligi ehtimoldan holi emas. Tarjimon vaziyatdan kelib chiqib, unga universitet so'zini qo'shishga majbur, aks holda, u kitobxon tomonidan to'g'ri anglanmaydi: U 1975 yilda Yeyl universitetini tugatgan.

Shubhasiz, muayyan muqobilliklar tayyor xolda qiyinchiliksiz ishlatiladi, lekin vaziyatdan kelib chiqib, muqobil topish tarjimondan mahorat va bilimni talab qiladi.

Frazeologik muqobilliklarda ham xuddi shunday holat kuzatiladi. Masalan, ingliz tilidagi *"To put the iron when it is hot"* maqoli o'zbek tiliga *"Temirni qizig'ida bos"* shaklida tarjima qilinadi. Bu muqobil maqol inglizcha idiomaning barcha semantik jihatlarini ochib beradi. Boshqa turg'un muqobilliklarning ko'chma ma'nosi aniq bo'lishiga qaramay, har xil tasviriy ma'nolarga bog'liq bo'lganligi tufayli qo'shimcha ma'nolari ham mavjud bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi *"to get up upon the wrong side of the bed"* idiomasi *"chap tomoni bilan turmoq"* shaklida tarjima qilinadi.

Tarjima matnda grammatik birliklarni tanlash ko'p jihatdan shu birliklarning semantikasi va boshqa elementlar bilan birika olish imkoniyatlariga bog'liq. Shuning uchun tilda doimiy grammatik muqobilliklar qariyb yo'q deyish mumkin. Tarjima tilidagi grammatik unsurlar shaklan har xil, lekin ma'no jihatdan o'xshash bulishi mumkin. Bunday muqobilliklar har doim ham bir-biri bilan almashtirilavermaydi va tarjimon ular orasidan mosini bemalol tanlay oladi

Shuning uchun tarjima mazmuni haqiqiy muallifning fikri bilan asl nusxani o'qigan o'quvchining fikridan farq qiladi, shu omillar original va tarjima qilingan asarni o'qiyotgan kitobxonlar o'rtasidagi aloqalar buzilishiga olib keladi. Aksar tanqidchilar bunday muvaffaqiyatsizlikni tarjimon muallifning fikrini ochib berishga qodir emasligida deb biladi yoki tarjimon u darajada erkin tarjima qila olmasligini ta'kidlashadi. Shu bilan birga, ba'zan uchrab turadigan o'zaro madaniy aloqalarning asosiy turi-avto tarjimalar, asosan, ikki tilda yozuvchi-muallifning ishlari bu modelni ancha osonlashtiradi, shu yo'nalishda tarjimonning til vakolatlari muammolarini osonlashtirishi mumkin.

2.2 Tarjimada mantiqiy bog'liqlikning muhim jihatlari

Ma'lumki, hayot nihoyatda chuqur mazmunga ega. Aks holda hech bir mavjudot ongli yoki beixtiyor ravishda unga intilmagan, uni sevmagan bo'lar edi. Hayotning bu qadar chuqur mazmun kasb etishi uni tashkil etadigan barcha jabhalarning o'zaro mantiqiy bog'lanishda ekanligi bilan vobastadir. Jumladan, inson hayoti xam mantiqiy o'sish va o'zgarishdadir. Umuman xayot tasodiflardan xoli bo'lmagani holda, ko'pincha kishilar nazarida yuzaki, tasodifday tuyuladigan hayot voqea-hodisalari asosida ham qonuniyatlar mantiqiy bog'lanishlar mavjud. Demak, mantiqiylik hayotiy zarurat bo'lib, mantiqsizlikka yo'l qo'yilishi hayot qonuniyatlarining soxtalashtirilishiga, buzilishiga olib keladi. O'zaro mantiqiy bog'liklik inson faoliyatining barcha jabhalari qatori fikr almashish quroli bo'lmish til hodisalariga ham taalluqlidir.

Bizning mamlakatimizda tarjima tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarning ko'pchiligi dastlab adabiy-tarixiy, ayrimlari badiiy tarjima yo'nalishlarda olib borildi. Birinchi yo'nalish tarafdorlari asosiy e'tiborni o'girilayotgan asarning badiiy-estetik qiymatigagina qaratib, badiiy yodgorlikning birlamchi asosi bo'lmish lisoniy jixatini nazardan soqit qilgan bo'lsalar, ikkinchi yo'nalish tarafdorlari qiyoslanayotgan ikki til vositalarining ko'proq lug'aviy muvofiqliklaridan kelib chiqib, asarning badiiy-estetik jihatiga kam e'tibor berdilar³³.

Mazkur yo'nalishlarni hamda asliyat mansub bo'lgan xalq moddiy, ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy hayoti bilan bog'liq rango-rang g'ayrilisoniy omillarni o'zida aks ettiradigan lisoniy-uslubiy vositalar vazifalarining tarjimada qayta ijodiy yaratilishi masalasi esa tarjimashunoslikning maxsus tadqiqot mavzui sifatida mamlakatimiz ilmiy-adabiy jamoatchiligi e'tiborini keyingi yillardagina o'ziga torta boshladi. Shunday qilib, insoniyat faoliyatining qadimgi turlaridan bo'lmish tarjima amaliyotini lisoniy-uslubiy nuqtai nazardan tahlil etish nisbatan

³³ Комиссаров В. Н. Современное переводовение. - Москва: ЭТС, 2002. - 270 с.

yosh tadqiqot usuli sifatida bizning vatanimizda endi shakllanib kelayotgan filologik soha bo'lib, uning tamoyillari olimlar tomonidan ishlab chiqilayotganiga ko'p fursat bo'lgani yo'k.

Ammo tarjimachilik faoliyati keyingi yarim asr mobaynida misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanib bormoqdaki, bunday amaliyot tadqiqotchilar e'tiborini keng ko'lamda o'ziga tortgani holda, eng samarador usullar vositasida nazariy umumlashtirilishi uchun zarurat vujudga kelmoqda. Bu hol lisoniy uslubiyatning bizda keyingi un yilliklar mobaynida o'z huquqiy maqomiga intila borib, endigina mustaqil filologik soha sifatida ilmiy jamoatchilik nazariga tushayotganligi, shuning uchun ham uning hali o'ziga yaqin, turdosh sohalar bilan munosabatga kirishib, o'z dalil va yutuqlaridan ularni yetarli darajada bahramand qilib ulgurmaganligi bilan bog'liqdir. Shunday qilib, badiiy asar voqelikni til vositalari orqali majoziy-hissiy va badiiy-estetik tarzda tasvirlashning yorqin namunasi hisoblanadiki, bu jihatlar lisoniy uslubiyatning tarkibini tashkil etadigan tushunchalar bo'lib, asliyat g'oyaviy-badiiy mazmunining tarjimada to'la-to'kis qayta yaratilishi uning tarkibidagi barcha lisoniy-uslubiy vositalar vazifalar³⁴ ijodiy talqin etilishiga vobastadir. Zero, ilmiy tahlil asosida qo'lga kiritilgan xulosalar tarjima amaliyotining samarali yo'llar vositasida rivojlantirilishiga, uning ravnaqi uchun zarur tamoyil va yo'l-yo'riqlar ishlab chiqarishga kumaklashadi.

Tarjimaviy tadqiqotning asosini, birinchi navbatda, so'z tashkil qiladi, ammo so'z o'z matniy muhitidan (asarning mikro va makrokontekstidan) ajratilgan tarzda emas, balki unga asoslangan holda boshqa so'zlar bilan matniy birikkan, turli-tuman munosabatlarga kirishgan holatida tadqiq qilinadiki, uning bu xususiyati yozuvchining badiiy-estetik maqsadini ro'yobga chiqarishi vositalaridan biri hisoblanadi, zero, alohida ajratilgan, matniy holat bilan bog'lanmagan so'z muloqotni tashkil etmaydi, u kommunikativ birlikning aloxida unsurigina, xolos.³⁵ So'z aksariyat hollarda adabiyotshunoslik va lisoniy-uslubiy tadqiqotlar tarkibida ham, tarjimaviy tadqiqot tarkibida ham narsa va hodisalarning bilvosita, ko'chma-

³⁴ www.ziyouz.com kutobxonasi

³⁵ Казакова Т. А. Translation Techniques. Практические основы перевода. Санкт-Петербург, 2001. - 120 с.

atamaviy vositasi sifatida gavdalanadi. O'z-o'zidan ma'lumki, har qanday badiiy matn tarkibida ishtirok etuvchi to'g'ri ma'nodagi bevosita atama badiiy tarjimaning asosiy vazifalarini amalga oshirishda bilvosita, ko'chma atama darajasida hal qiluvchi ahamiyat kasb eta olmaydi binobarin, tarjimaning asosiy mushkulotlari bevosita atama bilan deyarli bog'liq emas.

Tilda foydalaniladigan har bir leksik yoki frazeologik birlik ma'lum qoidalar asosida yasalishidan tashqari boshqa birliklar bilan ham jamoa aql-zakovati, mantiqiy tafakkurining maxsuli sifatida namoyon bo'ladigan mavjud qonun-qoidalar asosida birikadi. Bu, qoidaga aylangan til me'yorlariga rioya qilmaslik til madaniyati va an'anasi, shuningdek, undagi mantiqiy butunlikning buzilishiga olib keladi. Umuman til madaniyati singari tarjima tili madaniyati ham, birinchi navbatda, tilning madaniy me'yorlaridan to'g'ri foydalanishni taqozo etar ekan, me'yoriylik deyarli hamma vaqt mantiqiylik bilan chambarchas bog'lik bulib, goho muayyan fikr turli tarjimonlar tomonidan xilma-xil variantlarda bayon etiladiki, bu variantlarning ba'zilar fonetik, leksik va grammatik jihatlardan mantiqiy to'g'ri tuzilganliklari sababli til madaniyati hazm darajasida bo'lsa, ayrimlari mantiqiy asosdan xoli bo'lganliklari tufayli til me'yoridan, binobarin, madaniyatidan ham uzoq bo'ladi.

“Eshitilgan nutq mazmunini o'sha lahzaning o'zidayoq boshqa tilga o'girish, uzatish sinxron tarjimaning o'ziga xos xususiyatlarini, uning ekstremal vaziyatda sodir bo'ladigan faoliyat ekanligini belgilaydi. Bu o'rinda xorijiy tilda gapirayotgan notiq nutqi sinxronchi tomonidan mazmunan siqiq holda, qisqartirib bayon qilinishi, notiq nutqidagi to'xtamlardan foydalanishi, notiq nutqi mavzui bilan u ishlatayotgan so'zlar ma'nosini yaxshi tushunishi, u nima demoqchiligini oldindan faraz qilish orqali amalga oshiriladi”³⁶.

Olimlarning fikricha, notiq nutqidagi 50 millisekundgacha yo'l qo'yilgan to'xtamlar sinxronchi tomonidan to'xtam sifatida farqlanmay eshitiladi. Shunga ko'ra, notiq nutqida ro'y beradigan 200-250 millisekundli to'xtamlargina

³⁶ Виссон Линн. Практикум по синхронному переводу с русского на ан-глийский. - Москва, 2000. - С. 120.

sinxronchiga eshitilgan nutq mazmunini qayta ishlab, boshqa tilda bayon qilish imkonini beradigan to'xtam deya qabul qilingan. Bundan tashqari, eshitiladigan gap bo'lagining uzunligi ham sinxronchi tarjimasiga salbiy ta'sir qiluvchi omillardan hisoblanadi. A. Shiryayev va G. Chernovning tadqiqotlariga ko'ra, sinxronchi notiq nutqidan 1900 millisekund (1,9 sek) dan 6000 millisekund (6 sek)gacha orqada qolib tarjima qiladi. Bu vaqt jarayonida u eshitilayotgan nutq mazmunini anglashi va bayon qilishi lozim.

Uzbek tarjima maktabi namoyandalari qo'lga olgan asarlarining g'oyaviy-badiiy mazmunini o'z tillarida asosan to'g'ri aks ettirayotgan ekanlar, bu hol asarlarning tarkibiy qismi bo'lmish barcha leksik-frazeologik birliklar hamda fonetik va grammatik holatlarning til me'yorlariga mos holda mantiqiy jihatdan ham to'laqonli qayta tiklanayotganligi natijasidir. Jumladan, o'zbek kitobxonlari javonlaridan o'rin olgan xilma-xil xalqlar va mamlakatlar qalam sohiblari asarlarining aksariyati mantiqan asliyatdagiday qayta yaratilganliklari sababli ham barchaga manzur bo'lib. keng jamoatchilik faqat ularning g'oyaviy yo'nalishi haqidagina emas, balki badiiy tili haqida xam to'la-to'kis tasavvur olmoqda. Biroq mavjud tarjimalarning ayrimlarida umumxalq tiliga xos bo'lmagan g'ayritabiiy holatlar ham uchrab turadiki, ular asosan tarjimonlarning asliyat tili vositalari me'yori, qurilishi ta'siriga berilib ketib, xarfxo'rlikka yo'l qo'yishlari goho jonli til me'yor va an'alaridan, qonun-qoidalaridan foydalanishda ojizlik qilib qolishlari oqibatida sodir bo'ladi.

Ko'pchilik obrazli hamda hissiy-ta'sirchan lisoniy vositalarga nazar tashlar ekanmiz, ularda mujassamlashgan ma'no va uslubiy vazifalarning erkin ma'nodagi leksik birliklarning haqiqatlar zaminida o'zaro mantiqiy birikuvi asosida yuzaga kelganligi uchun ham tabiiy jaranglashini, umumlashtirish va obrazlilik yaratish qobiliyati kasb etishini ko'ramizki, tarjimada tanlangan muqobil vositalar ham ayni qonuniyat va xislatlarga asoslangan bo'lsalargina, vazifaviy adekvatlik yuzaga keladi.

Iboralarning ma'no va uslubiy vazifalari asoslangan leksik birliklar uyushmasi ham mantiqiy zaminga ega bo'lib, bir tabiat hodisasidan qutulish

maqsadida harakat qilib, natijada undan ham battarroq'iga duch kelib qolishni bildirsa, quyidagi misol tarjimasida komponentlarning o'zaro g'ayritabiiy birikuvi mantiqsizlikka olib kelgan:

May the winds blow till trey have waken'd death.

Mayli kuyun bundan ham zur guvillab essin,

Bu bo'ronday o'limning ham uyqusi o'chsin³⁷

Asliyatdagi "*the winds blow*" va uning uzbek tilida tarjimasidagi "*shamolning esishi*" ham moddiy, ham ma'no jihatlaridan mos keldi. Chunki bu tillarda "*wind*" so'zi "*blow*" bilan, "*shamol – esmoq*" bilan, birikib, shakl va mazmun jihatlaridan purmantiq isxoda vositalarini yuzaga keltiradiki, o'zbekcha tarjimada mazkur butunlikning buzilishi, ya'ni *shamol* o'rniga *kuyunning* esishi til madaniyatining soxtalashtirilib, mantiqsizlikka yo'l qo'yilishiga olib kelgan. Chunki *kuyun esmaydi*, balki *shamol* oqimi ta'sirida chang-to'zon hosil qilib *osmonga ko'tariladi*.

"Ba'zan tarjimonlar asliyatning o'ziga xosligini kitobxonlarga yetkazib berish maqsadida, unda foydalanilgan tasviriy vositalarni imkon boricha moddiy jixatdan saqlashga harakat qiladilar"³⁸. Tarjima amaliyotining bu usuli faqat asliyat rang-barangligini tiklabgina qolmay, balki tarjima tili boyligining oshishi, fikr bayon qilish imkoniyatining kengayishi yo'lida ham muhim axamiyat kasb etadi. Ayni usul vositasida to'la-to'kis adekvatlikka erishish, ya'ni mazmuniy va uslubiy maqsadni kitobxonlarga aniqroq yetkazib berish mas'uliyati goho tasvirlarning ayrim qismlarini o'zgartirishni taqozo etadi. Biroq bu jarayon muallif ko'zda tutgan maqsadni noto'g'ri talqin etib qo'yish xavfidan ham xoli emas. Masalan, Gamlet (Shekspir."Gamlet") aktyorlarga:

Masters, you are welcome. We'll e'en to 't like French falconers'

fly at any thing we see: we'll have a speech straight³⁹

deb murojaat qilgan ekan, u o'z nutqida fursatni boy bermasdan, birinchi ko'rgan ovining orqasidan tushaveradigan fransuz kiygirchilari kabi biz ham darxol ishni,

³⁷ Jamol Kamol. Vilyam Shekspir. – Toshkent: Fan, – 2008. 603 b.

³⁸ Саломов Ф. Таржима ташвишлари. - Т.: 1983. - 138 б.

³⁹ Jamol Kamol. Vilyam Shekspir. – Toshkent: Fan, – 2008. 603 b.

ya'ni san'at namunalari namoyishini boshlayveraylik, deydi. Muqoyasa asosida bayon etilgan bu fikrni tarjimonlar jumlani moddiy jihatdan aniq o'girish orqali talqin etishga harakat qilganlarki, bu usul o'zbekcha tarjimasida mantiqsiz talqiniga olib kelgan. O'zbekcha tarjimaning noto'g'ri jaranglashiga muqoyasaning keyingi qismining boshqa harakat bilan almashtirilishi sabab bo'lgan. Natijada, asliyat va uning o'zbekcha tarjimada mantiqsizlik vujudga keltirgan holda, Gamlet fikrining tiklanishiga halal bergan:

Xush kelibsizlar, taqsirlar! Kelinglar, fransuz kiygirchilariga o'xshab, birinchi kurgan dorga osilaveraylik! Qani, bironta monolog eshitaylik!⁴⁰

Tarjimaning mantiqan barkamolligi, uning fonetik, leksik va grammatik qonun-qoidalar doirasida me'yoriy va madaniy jaranglashi, sog'lom aql-zakovat va chuqur tafakkur zaminida yaratilgan fikrlarning jonli nutq an'analari bilan chambarchas bog'likligidadir. Obrazli hamda hissiy-ta'sirchan lisoniy vositalar erkin ma'nodagi leksik birliklarning hayotiy zaminida o'zaro mantiqiy birikuvi asosida yuzaga kelganliklari uchun ham tabiiy jaranglaydi. Ular umumlashtirish va obrazlilik yaratish xususiyati kasb etadilarki, tarjimon tanlagan muqobil vositalar ham, ayni qonuniyatga asoslangan bo'lsagina, vazifaviy adekvatlik yuzaga keladi.

Asoslarida yotgan obraz ochiq-oydin ko'zga tashlanib turadigan birliklarning kalka usuli yordamida o'girilishi aksariyat mantiqiy asosli bo'ladi. Ba'zan tarjimonlar zaruriy uslubiy samaradorlikni yanada aniqroq yaratib berish maqsadida birliklarning moddiy jihatdan aniq tarjimasi tarkibiga ma'noni oydinlashtiradigan, to'ldiradigan so'zlar qo'shadilar, ayrim komponentlarni boshqa so'zlar bilan almashtiradilar. Bunday qo'shish va o'zgartirishlar hosil bulgan birikma mikrokontekstiga yopishsagina, ifodaning mantiqiy asosi to'la saqlangani holda, adekvatlik yuzaga keladi.

⁴⁰ Турабаева Р. А. Прагматические вопросы художественного перевода с английского языка на узбекский: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. - Ташкент, 1979. - 21 с.

II Bob bo'yicha xulosalar:

1. Manba tilidagi so'z yoki so'z birikmasining tarjima tilida hech qanday o'zgarishga uchramay, taqlid qilish orqali ishlatilish usuli yordamida yasama muqobillar, ko'pincha, tarjima qilingan til foydalanuvchilari tomonidan doimiy muqobil sifatida qabul qilinmaydi.

2. Ma'nosi yaqin muqobillarni ishlatish usuli, ya'ni tarjima tilida ma'nosi yaqin bo'lgan so'zlar qo'shimcha ma'noni ifodalashi uchun, zarur bo'lsa, matn shu so'z haqida qisqa ma'lumot berib o'tish yordamida kengaytiriladi. Masalan: drugstore - dorixona; afternoon - kechkurun. Ingliz tilidagi drugstore so'ziga tanlangan dorixona muqobili tildagi asliy ma'noni bermayapti, chunki drugstore so'zi nafaqat dori sotiladigan, balki jurnal, toza ichimlik, muzqaymoq va boshqa narsalar sotiladigan joy nomini ham bildiradi. Lekin ba'zi bir hollarda xuddi shu muqobillik eng yaqin ma'noga ega bulishi va shu bois bermalol ishlatilishi mumkin.

3. Manba tilidagi so'zning ma'nosini almashtiruvchi har xil leksik transformatsiyalarni ishlatish usuli orqali ingliz tilidagi gap o'zbek tiliga mazmunan yaqin tarjima qilinishi mumkin.

4. Manba tilidagi birlikning ma'nosini yetkazib berish maqsadida tarjimalar izox berish usulidan unumli foydalanishgan

III BOB. XX - XXI ASR O'ZBEK-INGLIZ TARJIMALARI NING QIYOSIY TAHLILI .

3.1 Boburnomaning ingliz tili tarjimalarida uslubning o'ziga xosligi

Tasviriy vositalar asar badiiyligini ta'minlovchi muhim poetik birlikdir. O'quvchining asar haqidagi taassurotini oshirish, retsepsiya jarayonini tizimlashtirish, asardagi tarixiy vaziyat, holat mohiyatini anglatish, syujet va obraz funksiyasini belgilashda tasviriy vositalarning o'rni beqiyosdir. Tasviriy vositalar badiiy asar tarkibida turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Biror predmetning boshqa predmetlardan ajralib turadigan alohida xususiyatini ta'kidlash uchun uning maxsus belgisini ko'rsatib turuvchi so'zlardan foydalaniladi yoki shu predmetga o'xshatish bilan konkretlikka, aniqlikka erishiladi. Ba'zan turmushdagi ayrim hodisalarning salbiy tomonlarini to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatishdan ko'ra kinoya, istehzolarga murojaat etiladi. Bunday vositalar tilshunoslikda tasviriy vositalar termini bilan yuritiladi.

Tasviriy vositalar yuzasidan qator tilshunos va adabiyotshunos olimlar tadqiqot olib borganlar. Jumladan R.Qo'ng'urov, A.Yu.Boboniyozov, S.Jamolov, H.Qudratullaev, A. Abdullaev, G.F. Blagova, I.V. Arnold, V.P. Moskvina, Yu.L. Obolenskaya, X.Abrams, Roberto Franzosi, S. Forsevil, R. Fan Enshot va boshqalarning⁴¹ tadqiqotlarida tasviriy vositalar nazariyasi va amaliyoti uyg'un aks ettirilganini ko'ramiz. "Boburnoma" matnida qo'llangan tasviriy vositalarning ingliz tilidagi tarjimalari muammosi o'zbek adabiyotshunosligida maxsus o'rganilgan emas.

⁴¹ Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977; Бобониёзов А.Ю. А.Қодирийнинг Ўткан кунлар романида тасвирий воситалар. – Тошкент, 1995; Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык. М.: Флинта, Наука, 2002; Москвина В. П. Выразительные средства современной русской речи: тропы и фигуры. М.: Едиториал УРСС, 2004. 248 с; Ю.Л.Оболenskая. Художественный перевод и межкультурная коммуникация. М., 2006. 336 с; Abrams H. A Glossary of Literary terms. – United States of America, 1999; C.Forceville. Pictorial metaphor in advertising. – London, New York: Routledge, 1996; Van Enschot, R. Retoriek in reclame. Waardering voor schema's en tropen in tekst en beeld. Ph.D. thesis Radboud University, Nijmegen. – Amsterdam, 2006; Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили. –Тошкент: Ўқитувчи,1990.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida shaharlar, qishloqlar tasviri, voqea-hodisalar tafsiloti, jangu jadallari haqida shunchaki bayon qilmaydi, ularni badiiy tasvir vositalari orqali ifodalaydi. Bu bilan asarning o'quvchiga tushunarli bo'lishini ta'min etadi. Xususan, davlat boshqaruvi tizimi vakillari – vazirlar, beklar, tarixiy shaxslar, yozuvchi, adabiyotshunos, musiqachi, chavandoz, musavvir va boshqa shaxslar portretlari, xarakter xususiyatlarini kitobxon ko'z o'ngida jonlantirishda tasviriy vositalardan unumli foydalangan.

"Boburnoma"da tarixiy shaxslardan oltitasi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Bular: Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Xisravshoh, Boysunqur Mirzo va Husayn Boyqarolardir.

Masalan, Bobur Sulton Ahmad Mirzoning baland bo'yli, baquvvat kishi ekanini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, soqolini engagida qo'yishini, bu esa unga alohida viqor bag'ishlashini qayd etadi. Muallif bir yo'la ikki kishiga (otasi va Sulton Ahmad Mirzo) nisbatan ishlatgan "tanbal" sifatlashi "Navoiy asarlari lug'ati"da "tanbal":

- Yalqov, dangasa;
- Semiz, lo'ppi⁴².

Bizningcha, tanbal so'zining lug'atda keltirilgan birinchi ma'nosi har ikkala shaxsga nisbatan o'zini oqlamaydi. Chunki harbiy qobiliyat va jangu jadal baland rutbada bo'lgan Bobur zamonida yalqov tabiatli kishining taxt egasi bo'lib turishi ehtimoldan uzoq. Aftidan, Bobur ta'riflagan bu ikki shaxsga berilgan "tanbal" sifati ularning chorpahl, to'ladan kelgan, baquvvat bo'lganidan dalolat beradi.

Bobur Sulton Mahmudning ijtimoiy, davlat boshqaruv faoliyatiga qisqa ta'rif berib o'tish bilan ushbu qahramon portretining yanada yorqinroq, to'laroq namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Masalan: "majlis va baxshish va shilon va devoni bisyor yaxshi edi. Barchasi qoida va tuzuki bila edi" deyish bilan o'quvchi tasavvurini qahramon portretining yana bir muhim chizg'isi bilan boyitadi. "Baxshish" so'ziga lug'atda "berish, ehson etish, muruvvat" deya izoh berilgan.

⁴² Navoiy asarlari lug'ati. Tuzuvchilar: P. Shamсиеv, C. Иброҳимов. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 1972. – Б.592.

Bobur “Sulton Mahmud Mirzo muruvvatli, qo’li ochiq, dasturxoni to’kin-sochin kishi edi” tarzida ifodalanishi mumkin bo’lgan ma’noni birgina “baxshish” so’zida qisqa, lo’nda va haqqoniy ifoda etadi.

Xorijlik boburshunos U.Erskin ham bu jihatni alohida e’tirof etadi: “Bobur biror shaxs haqida so’z yuritadigan bo’lsa, uning shakl-shamoyili, kiyinishi, didi, odatlarini shunday haqqoniy tafsilotlar bilan tasvirlab beradiki, biz xuddi bu odamni hayotda ko’rganday, u bilan birga yashaganday bo’lamiz”⁴³.

Ko’rinib turibdiki, Bobur o’z asarida shaxslar portretini yorqin tasvirlashda qisqalik, lo’ndalik, badiiy bo’yoqdorlik, sof turkiy so’zlardan unumli foydalanish singari poetik, tarixiy, lingvistik, xalqona vositalarni o’rinli ishlatgan, bularning barchasi portret yaratish tamoyillarini belgilaydi. Bobur nasriga xos yuksak mahoratdan dalolat beradi. Bu haqida yapon olimi Eyji Mano’ ham o’z fikrini bildirib o’tadi. Jumladan, Bobur tarixiy kishilarning portreti va xarakterini aniq tasvirlab berganini ta’kidlaydi⁴⁴.

Xarakter badiiy asar butunligini ta’minlaydigan muhim poetik birlik hisoblanadi. Badiiy portret asosan qahramon tashqi qiyofasi haqida tasavvur uyg’otishga xizmat qilsa, xarakter uning ichki dunyosi, asar syujeti va undagi boshqa qahramonlar bilan munosabatini ta’minlovchi vosita vazifasini bajaradi. Faqat badiiy portret bilan xarakter uyg’unlashgandagina qahramon mohiyati to’laqonli ochiladi. Asarning ta’sir kuchi, estetik qiymati, amaliy va tarbiyaviy ahamiyati oshadi.

Xarakter adabiyot nazariyasi o’rganib kelayotgan salmoqli muammolar sirasiga kiradi. Adabiyotshunoslik tarixida Aristotelning “Poetika” asaridayoq xarakter masalasiga jiddiy e’tibor berilgan. Yunon allomasi o’z asarida xarakterning to’rtta muhim qirrasini qayd etgan. Bularning birinchisi, xarakter sohibining yaxshi va aniq maqsadga yoki yomon va yomon maqsadga ega bo’lishi;

⁴³ Эркин У. Бобур Ҳиндистонда. /Ғ. Сотимов таржимаси/. – Тошкент: Чўлпон, 1995.– Б.105

⁴⁴ Ейџи Мано. The characteristical description of historical people in Baburname. Бобур абадияти. Бобурнинг жаҳон маданияти ва тарихидаги роли (Халқаро анжуман материаллари). – Андижон, 2017. – Б.23-24.

ikkinchisi, xarakterning o'ziga (ya'ni qahramon shaxsiga) xos va mos bo'lishi; uchinchisi, xarakter haqqoniy bo'lishi; to'rtinchisi, xarakter izchil bo'lishi lozim⁴⁵.

“Boburnoma”dagi xarakterlar tasviri quyidagi tasnifga ko'ra o'rganildi:

1. Hukmdorlar obrazi. Ulug'bek Mirzo, Umarshayx Mirzo, Abdulaziz Mirzo, Badiuzzamon Mirzo, Boysunqur Mirzo, Husayn Boyqaro, Sulton Mahmud, Sulton Ahmad, Shayboniyxon;

2. Amirlar obrazi: Darvesh Alibek, Muhammad Burunduq barlos, Jahongir barlos, Nuyonbek, Zunnun arg'un va h.k.;

3. Vazirlar obrazi: Majdiddin Muhammad, shayxulislom Sayfuddin Ahmad, Mavloni Shayx Husayn, Mullozodayi Mullo Usmon, Mir Murtoz, Mullo Mas'ud Shirvoniy va h.k.;

4. Din peshvolari obrazi: Xoja Ubaydulloh Ahror, Mir Sarbaraxna, Kamoliddin Husayn Gozurgohiy va h.k.;

5. Harbiy amaldorlar obrazi: Dilovarxon, Qosimbek va h.k.

Shaxs va xarakter munosabatini ifodalovchi qiyosiy vositalarning tarjimada berilishi, tarjimada xarakter psixologiyasini aks ettiruvchi tasviriy vositalarning o'rnini va muallif muqoyasa uslubining tarjimada namoyon bo'lishi singari o'zaro bog'liq uch muammo tadqiq etilgan.

“Boburnoma”da 1560 dan ortiq tarixiy shaxslar tilga olinganligi, 30 ga yaqin fanga oid faktual dalillar mavjudligi, kishini hayratga soladigan ko'plab hayotiy lavhalarning chizilganligi, har bir shaxsning o'zigagina xos xususiyatlar bilan namoyon bo'lganligi, qiziqarli tarixiy voqealar keltirilganligi, tabiat, relief, nabotot, turli millatga mansub xalqlarning urf-odatlariga oid boy ma'lumotlar berilgani fikrimizga yorqin dalildir.

Ba'zan so'z va so'z birikmalarining muqobil varianti topilmasa, ularning o'rniga ma'nodosh so'zlarni qo'llashga to'g'ri keladi. Oqibatda o'quvchiga tushunarsiz jumlar paydo bo'ladi. Bunday muammolar ko'pincha asl matnda xos so'zlar uchraganda tug'iladi. Bu masala yechimiga doir ko'p urinishlar amalga

⁴⁵ Аристотель. Поэтика. Поэзия санъати ҳақида. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1980. – Б.31.

oshirilmoqda: xos soʻzning asl maʼnosini kontekst asosida topish va unga muqobil variantini izlash yoki transliteratsiya orqali berish, izohlab ketish singari. Bu haqida xorijlik tarjimashunos Vanderauvera Ria yozadi: “Tarjima matnni qayta ishlashga oʻxshaydi. Chunki u manba matnidan biroz farqlanishni koʻrsatib turadigan alohida holdir. Uning talabi matndan matnga sezilarli darajada biroz farq qilish, ammo maʼno va mazmunini aynan saqlab qolishdir”⁴⁶.

“Boburnoma”ning ilk sahifalarida muallif otasi Umarshayx Mirzo haqida soʻz yuritadi. Shu jarayonni tasvirlab Bobur otasi xizmatida boʻlgan shahzoda, beklar haqida qisqa, ammo boy maʼlumot beradi.

Masalan, u:

Asliyatda: “Yana bir Shayx Mazidbek edi, manga avval bekatka ani qilib edilar. Zabti va tuzuki xeyli yaxshi edi. (Abulqosim –D.X.) Bobur Mirzogʻa xizmat qilgʻondur. Umarshayx Mirzo qoshida andin ulugʻroq bek yoʻq edi. Fosiq kishi erdi”⁴⁷ (Boburnoma 2002; 41), deb yozar ekan, bu bekning saltanatni boshqarish ishlarida mohirligi, oʻz sultonlariga sadoqat bilan xizmat qilishini taʼkidlash barobarida, shaxsiyatiga xos unsurlarni ham bayon etadi.

Bu jihatlar Leyden-Erskin tarjimasida: “There was another named Sheikh Mazid Beg, who was first appointed my governor. His arrangements and discipline were excellent. He had been in the service of Babur Mirza. No man stood higher in the esteem of Omer-Sheikh Mirza than himself. He was, however, of grossly libidinous habits...”⁴⁸ tarzida keladi.

Ushbu “Umarshayx Mirzo qoshida andin ulugʻroq bek yoʻq edi” jumlasini “No man stood higher in the esteem of Omer-Sheikh Mirza than himself” deb tarjima qilinadi. Xuddi shu jumla tarkibiga kirgan “Umarshayx Mirzo qoshida” soʻzlari matnga qiyosiy tasvir ruhini beradi, ammo tarjimada aynan oʻz aksini topmagan. Tarjimon buni yaxshi his qilgan. Bunday maqtov Boburning Mazidbekka xos fosiqlik qusurini qayd etishiga xalal bera olmagan. Holbuki

⁴⁶ Vanderauvera Ria. Fiction in Translation: Policies and Options: a Case Study of the Translation of Dutch Novels into English over the Last Two Decades. Doctoral dissertation. Universitaire Instelling Antwerpen (Belgium). – Wilrijk: 1982. – P.156.

⁴⁷ Boburnoma T.: Sharq, 2002; – B. 41

⁴⁸ Leyden J., W.Erskine. Memoirs of Zehireddin Muhammed Babur, Emperor of Hindustan. – Edinburg, 1826. – P.22-23

“fosiq” so’zi lug’atlarda “yomon ishlar qiluvchi, yomon yo’lga yuruvchi, buzuq, fisoq ishlar bilan shug’ullanuvchi”, tarzida izohlanadi. Bir qarashda bu qusurning zikr etilishi Mazidbekka xos barcha ijobiy jihatlarni yuvib ketadigandek tasavvur beradi.

Asliyatda:

Yana biri Shayx Mazid Beg edi. Mening birinchi bek atkam, boshqaruvi va uslubi yaxshi edi. Bobur Mirzoga xizmat qilgan. Umarshayx Mirzoning qo’shinida ulug’roq beg yo’q edi. U buzuq shaxs edi.⁴⁹

A.Beverij tarjimasida:

Shaikh Mazid Beg was another, my first guardian, excellent in rule and method. He must have served (khidmat qilghandur) under Babur Mirza (Shahruxi). There was no greater beg in Umar Shaikh Mirza’s presence. He was a vicious person...⁵⁰

A.Beverij tomonidan asliyatdagi “Umarshayx Mirzo qoshida andin ulug’roq bek yo’q edi” jumlasini “There was no greater beg in Umar Shaikh Mirza’s presence” (Umarshayx Mirzoning qo’shinida ulug’roq beg yo’q edi) deb o’girilishi matndagi qiyosiy tasvir quvvatini yo’qqa chiqargan. Gapdagi qiyosiy darajani ifodalovchi “than”ning tushib qolishi shunday xatoga olib kelgan. Boburning Mazidbekka nisbatan “fosiq kishi erdi” sifatlovchi birikmasi axloqiy-ma’naviy xususiyatni nazarda tutib qo’llangan.

Tarjima variantlarini qiyosiy tahlil etish natijasida inglizcha tarjimalarning ikkitasida (Leyden-Erskin va A.Beverij tarjimalarida) asliyatdagi saj’ san’ati e’tiborga olinmagani, butun leksik quvvat matn mazmunini berishga yo’naltirilganligini ko’rsatadi. V.Tekston tarjimasida esa boshqa, ya’ni ijobiy holatni, tarjimonning voqealar tafsiloti saj’ bilan ifodalanganini anglab yetgani, shuning uchun tarjima matnida talaffuzi jihatidan bir-biriga qofiyadosh so’zlarni qo’llaganini kuzatamiz. Natijada tarjima matnida saj’ning pragmatik jihatini, matndagi tang vaziyat, qahramonlar ruhiyatidagi muvozanatsizlik imkon doirasida

⁴⁹ Boburnoma T.: Sharq, 2002; – B. 41

⁵⁰ Beveridge A.S., The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the Original Turki Text of Zahiru’ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette, Susannah Beveridge. 2 Vols, – London, 1922; Repr, in one Volume, – London, 1969; – New Delhi, 1970; – Lahore, 1975. – P.26

aks ettirilgan. Demak, tarjima matni pragmatikligi faqatgina til birliklarini aniq o'g'irish bilan bog'liq emas. Matn ruhiyatini ifodalovchi badiiy san'atlar, saj'ning muhim jihatlari, uning pragmatik tarjimasi ham bu o'rinda muhim ahamiyatga ega.

Bobur turkiy tilning eng qadimgi namunalaridan boshlab, klassik shakllarigacha mukammal bilgan va o'z asarida ularning eng sara namunalarini muvofiq holda qo'llagan buyuk so'z san'atkori edi. Ayni paytda uning arab va fors tillarini nozik qatlamlariga qadar egallagani she'riyati, ilmiy-tarixiy ijodi, ayniqsa "Boburnoma"dek ulkan asarning maydonga kelishini ta'min etdi. Bu borada, albatta, "Boburnoma"tilining asosi bo'lgan qadimgi turkiy tilning ahamiyati cheksizdir.

Boburshunos Z.Xolmanova xulosasiga ko'ra: "Boburnoma"da qadimgi turkiy til davrida keng iste'molda bo'lgan 1720 dan ortiq umumturkiy leksema qo'llangan. Asar leksikasining qadimgi turkiy til davriga munosabatini belgilashda so'zlar uch guruhga ajratiladi:

- 1) eski o'zbek adabiy tilida keng qo'llanilgan turkiy leksemalar;
- 2) eski o'zbek adabiy tili davriga qadar iste'moldan chiqqan leksemalar;
- 3) eski o'zbek tili davrida shakllangan leksemalar⁵¹.

Ma'lumki, arxaizmlarni muayyan davrga oid jonli va adabiy tilda qo'llanilmagan so'zlar yig'indisi tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan "Boburnoma"tilida arxaizmlarning qo'llanishi asar muallifining til tarixiga doir chuqur bilim va lingvistik tajribaga egaligidan dalolat beradi.

"Boburnoma"dagi: "Bu muddatda Boysunqur Mirzo Turkistong'a Shayboniyxong'a, mutavotir kishilar yuborib, Shayboniyxonni ko'mak tilabdur. Qishloq uylari tayyor bo'lub qo'rg'onga kirduk. Shayboniyxon Turkistondin ilg'ab o'shul sahari bizning yurtumiz ustiga kelib turdi. Bizning cherikimiz yaqin emas edi. Qishloq maslahatig'a ba'zi Raboti Xojag'a, ba'zi Kobudg'a, ba'zi Sherozg'a borib edilar"⁵². Tagiga chizib ajratilgan so'zlarning barchasi Bobur davri tili nuqtai nazaridan arxaizm emas. Ammo bugungi kunga kelib yozilish shakli, leksik

⁵¹ Холманова З. «Бобурнома» лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 24.

⁵² Boburnoma T.: Sharq, 2002; – B. 58

vazifasi va ma'nosiga ko'ra arxaizmga aylangan. “Ko'mak tilabdur” arxaik so'zi tarjima matnlarida quyidagicha ifodalangan.

Leyden-Erskin tarjimasida: **“inviting him to come to his assistance” (uning yordamga kelishini taklif qilish)** deb beriladi.

A.Beverij tarjimasida: **“to ask help” (yordam so'rash)** tarzida keltiriladi.

V.Tekston tarjimasida: **“to request assistance” (yordam so'rab iltimos qilish)** shaklida keltiriladi.

A.Beverij tarjimasida asliyatga yaqin tarjima qilingan. Leyden-Erskin tarjimasida arxaik so'zlar turli daraja va saviyada o'z ifodasini topgan. Ammo, V.Tekston tarjimasida arxaik so'zlar aniq aks etganligi va pragmatik xususiyatlari o'zgarmaganligi bilan ajralib turadi. Chunki u gaplarni sodda gap tarzida o'girib, o'quvchi qabul qilishini yengillashtirgan.

Muallifning qiyoslash, asarni badiiy talqin etishdagi ifoda uslubini saqlab qolingani va arxaik so'zlarning tarjimalarida pragmatik muvofiqlik bilan amalga oshirganini ko'rsatadi.

3.2. Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig” asarining ingliz tiliga tarjimalarida shakl va mazmun birligi

Markaziy Osiyo xalqlari adabiyoti asarlarini tadqiq qilish va ularning tarjima nashrlarini tayyorlashda dunyoda o'ziga xos maktablar yaratilgan. Bunda, ayniqsa, Angliya, AQSH, Germaniya va Fransiya turkshunoslik va tarjima maktablari qilgan ishlarni alohda ta'kidlash lozim. Birgina o'zbek mumtoz adabiyotidan Yusuf Xos Xojibning “Qutadg'u bilig”idan tashqari Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'ati-t-turk”, Alisher Navoiyning “Farxod va Shirin”, “Lison ut-tayr”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” kabi asarlari hamda “Alpomish”, “Ravshan”, “Yusuf va Ahmad” kabi xalq dostonlari ingliz, tilliga bir necha marotaba turli tarjimonlar tomonidan o'girilgan. Bu jarayon uzluksiz davom etmoqda.

Ingliz tilli **(AQSH va Angliya)** turkshunoslik maktablarining ham o'ziga xos jihatlari bor. Ularda asliyatni sharhlash mahoratining chuqurligi, muallif yaratgan asar va unda aks etgan voqelik to'g'risida batafsil ma'lumotlarni berish an'analari ustunlik qiladi. Asliyat matnini bevosita tarjima nashrlari bilan birgalikda bermasliklari, transkripsiyalash ishini alohida nashrlarda amalga oshirishlari hamda maxsus lug'atlarni ham mazkur nashrlarga doim ham kiritavermasliklari bilan ajralib turadilar. Jumladan "Boburnoma"ning inglizcha nashrlari⁵³ to'g'risida ham shunday holatlarni ko'rishimiz mumkin. Amerikalik R.Denkoffda ham ana shu an'analarga rioya qilingan. U "Qutadg'u bilig" asarining turkiy asliyatini keltirmaydi, jumladan, uning transkripsiyasini xam. Kitob bevosita inglizcha tarjima matni bilan boshlanaveradi. Faqat asliyatda tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar kitob so'ngida maxsus izohlanadi. Taniqli ingliz turkiyshunos olimi A.Beverij xonimning "Boburnoma"ning inglizcha tarjimasi matniga yozgan so'zboshisi va so'ngso'zi kabi batafsil kirish (deyarli 40 sahifa)ni R.Denkoff tarjima matni oldidan keltiradi. Aytish lozimki, har bir tarjima muayyan ilmiy maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilgan. AQSH turkiyshunoslarining Yevropa maktablaridan farq qiluvchi yana bir jihati bor. Bu ham bo'lsa, o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari, qadimgi turkiy obidalar, xususan, "Qutadg'u bilig" asarining originalligiga shubha bilan qarash, ularga nisbatan "kalka" (shundayligicha utkazish, kuchirib utkazish) tamg'asini bosishga urinishdir. Buni hatto Alisher Navoiyning mashhur "Xamsa"sigam ham qo'llashga harakat qilingan. Ana shunday munosabatni R.Denkoff tadqiqotlarida ham uchratish mumkin. Uning mana bu so'zlariga e'tibor qilaylik: "Fors-islom an'anelarini "Qutadg'u bilig"ning til xususiyatlarida ko'rishimiz mumkin. Tarjimada sharh va izohlarga alohida e'tibor beriladi. Asarda o'xshatish va ramzlardan keng foydalanilgan. Masalan, o'limni - "chavandoz", kasallikni - "o'lim jarchisi"; mehmondustlikni - "non va tuz"; kiyim-kechakni va oziq ovqatni - "tomoq va elka", o'z taqdiridan xursand kishilarni - "ko'zi to'q", aksincha bo'lsa - "ko'zi och", sog'lom va baxtli odamlarni "qizil

⁵³ Beveridge. The Babar-nama. Being the Autobiography of the Emperor Babar the Founder of the Moghul Dynasty in India, written in Chaghatay Turkish; now reproduced in Facsimile from a Manuscript belonging to the late Sir Salar Jang of Haydarabad, and edited with a Preface and Indexes. - London J 905. - 871 p.: J. Leyden, W. Erskine, Memoirs of Zahir-ed-din Muhammed Babur, Emperor of Hindustan. -Edinburg, 1826. - 348

yuz”, kasallarni – “sariq yuz”, kungli toza kishilarni – “ochiq yuz”, aksinchalarini – “qoshi tugun” o’xshatishlari bilan beriladi. Bularning barchasi fors tasvir an’analariga to’la mos keladi”.⁵⁴ Ana shu dalillarni mutarjim boshqa tomonga buradi. Aniqrog’i, asarning inglizcha tarjimasiga yozgan kirish so’zining bir qismini “Forschadan kalka” deb nomlab qo’yaqoladi va butun bob davomida “Qutadgu bilig”ning fors tilidan kalka ishora qiladi.

Mutarjimning ushbu xulosasiga qo’shilib bo’lmaydi. To’g’ri, har bir til lug’at boyligining xos va xolis sabablarga ko’ra tillardan-tillarga o’tish qonuniyati mavjud. Lekin ular besabab amalga oshmaydi. Agar ma’lum bir tildagi idiomatik iboralar aynan o’zbekchaga mos kelsa, unda ularning hammasi ham o’sha tillardan to’g’ridan-to’g’ri kirib kelavergan bo’lib chiqmaydimi? Bunday xodisalar birdaniga sodir bo’ladigan narsa emas, balki uzoq muddatli tarixiy-ijtimoiy davrni o’z ichiga oladigan jarayondir. Bir xalq adabiyoti durdonalari tillardan tillarga o’tadi va o’rni bilan boshqa bir xalq mulkiga ham aylanadi. O’tgan asrning 50-yilaridayoq “Qutadg’u bilig”ga oid e’tiborli tadqiqotlar olib borgan rossiyalik olim A.A.Vapitova o’zining “Юсуф Баласогунский и его Кутадгу “ nomli maqolasida asarni arab va fors tillaridan qilingan oddiy tarjima deb da’vo qiluvchilarning har qanday fikrlari butunlay asossiz ekanligini juda to’g’ri ta’kidlagan edi. Demak, bir-biriga yaqin xalqlarning o’zaro munosabatlari, oldi-berdilari to’g’risida gapirganda bo’lib o’tgan tabiiy-ijodiy jarayonlarni darrov turli xil “tarjima”, “ko’chirmakashlik”, “plagiatlik”larga yo’l qo’yishga shoshilmaslik kerak.

Qadimgi obida bulmish “Qutadg’u bilig” - o’ziga xos matn. U, avvalo, so’z san’ati namunasi, pandnoma, qolaversa, qomus. Qadimgi davrda yaratilgan asarni uning hozirgi til holatiga o’girish tabdil deyiladi. Boshqa tillarga ugirilsa, tarjima hisoblanadi. Tarjima ustoz G.Salomov ta’kidiga ko’ra “zuryodiylik” (matn tugdirish) xususiyatiga ega.

⁵⁴ Introduction in: Yusuf Khass Hajib, *Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A Turko-Islamic Mirror for Princes*, translated, with an introduction and notes, by Robert Dankoff. - University of Chicago Press, 1983.

Amerikalik R.Denkoff esa inglizcha tarjimada R.Aratning turkcha nashriga asoslandi. Amerikalik R.Denkoff inglizcha tarjimada R.Aratning turkcha nashriga asoslandi. Rashit Arat 1947 yilda “Qutadg’u bilig”ning har uch nusxasi asosida amalga oshirgan transkripsiyasi va yangi turkcha nashrida:

Negũ tir ešitgil ila atligi

tũz etmek kingũt ay kisi kutluga⁵⁵

Ushbu manba asosida inglizcha tarjimini amalga oshirgan amerikalik tarjimon R.Denkoff quyidagicha o’giran:

The Chief of Ili Valley has said: If fame and life are your desire, feed bread and salt. (Ila vodiysining boshligi shunday deydi: Agar sen nom qozonish va yashash niyatida bȳlsang, non va tuz tutgin).

Amerikalik tarjimon asliyatdagi Ila nomini to’g’ri talqin qilgan bo’lsada, uni The Chief of Ili Valley, ya’ni Ila vodiysining boshlig’i, deb beradi. Boshqacha qilib aytganda asliyat matni tarjimada yanada konkretlashtiriladi. Bu amerikalik o’quvchiga yanada qulaylik tug’dirishi tabiiy.

Demak, aynan matn tarjimaning qanday bo’lishi kerakligini, uning lisoniy-uslubiy xususiyatini belgilaydi. Qadimgi obidalarni hozirgi tillarga o’girishda aynan tarjima muhim ahamiyat kasb etadi. U nafaqat bizdan olis davrda yaratilgan original asarni bugungi o’quvchiga tanishtiradi, balki o’zi yana yangi matnlar, boshqa tillardagi yangi-yangi talqinlarning yaratilishiga asos bo’la oladi. Tadqiqotda ana shu jihatga alohida ahamiyat qaratiladi.

Tarjimashunoslikda badiiy asarlarni ilmiy maqsadlarda o’girilgan ishlarga nisbatan turlicha atamalar qo’llanilmoqda. Jumladan, ilmiy-adabiy tarjima, filologik tarjima, so’zma-so’z tarjima, izohli tarjima, nasriy tarjima. Bularning bir-biriga o’xshash jihatlari mavjud. Nasriy tarjima atamasida ularning hammasini umumlashtiruvchi jihat bor. Ammo so’zma-so’z tarjima bilan ilmiy-adabiy tarjimini bir narsa deb qarab bo’lmaydi. So’zma-so’z tarjima qilish uchun faqat til bilish qobiliyatiga ega bo’linsa kifoya. Biroq badiiy asarni ilmiy yo’sinda o’girish o’z-o’zidan bulmaydi.

⁵⁵ **Rashit Arat.**, Kutadg’u Bilik., S.401

Taniqli tarjimashunos olim Irji Levin har qanday tarjimani qayta yaratish san'ati deb baxolar ekan, kadimgi davr tilidan xozirgi tillarga va bir-biridan lisoniy va hududiy yiroq bo'lgan sharq tillaridan g'arb tillariga qilingan tarjimalarni badiiy tarjimalar deyish bilan birgalikda ularni ilmiy-tadqiqot ishlari sifatida e'tirof etadi.⁵⁶ Badiiy asarlarni ilmiy yo'sinda tarjima qilish masalasiga tarjimashunos olim Popovich A. yanada aniqroq javob beradi. Uning fikriga ko'ra, asliyatdagi she'riy asar tarjima tiliga ilmiy-adabiy yo'sinda o'tkaziladigan bo'lsa, tarjima birligi ritmik-sintaktik jihatdan yaxlit bo'lgan gapdan iborat bo'ladi⁵⁷. Bunga u she'riy asarlarning nasriy tarjimalarini misol keltiradi. O'zbek tarjimashunoslari G.Salomov hamda N.Komilov she'riy asarlarning nasriy tarjimalari ham tarjima tarixida badiiy muqobillikka da'vo qilganliklarini eslatib o'tishgan.⁵⁸

Yukoridagi mulohazalarni ham inobatga olgan holda, bizningcha, badiiy asarni ilmiy maqsadlarda o'girilgan tarjimalariga xos bo'lgan quyidagi jixatlarni ko'rsatish mumkin:

1. Badiiy asarning ilmiy-adabiy tarjimasi quruq so'zma-so'zlikka asoslangan tarjima emas.

2. Badiiy asarning ilmiy maqsadlarda amalga oshirilgan tarjimasi asliyatning to'laqonli badiiy muqobil variantini yaratishni da'vo qilmasada, uni amalga oshiradigan olim-tarjimon adabiyot, so'z san'ati ilmidan xabardor bo'lishi lozim. U yaratgan tarjimada asliyatdagi badiiylikni qayta yaratish xususiyati albatta uchraydi.

3. She'riy asar ilmiy-adabiy tarjimada, albatta, nasriylashtiriladi. Bu to'g'ri tartibli, tuzish orqali amalga oshiriladi.

4. Tarjimada izohlar, asosan, asarda olim-tarjimon uchun muhim bo'lgan jihatlariga qaratiladi. Bunda olim-tarjimonning mutaxassislik soxasi ko'prok aks etadi.

⁵⁶ Левин Иржи. Искусство перевода. - Москва: Прогресс, 1980. - 396 с.

⁵⁷ Попович А. Проблемы художественного перевода. Перевод со словацкого. - Москва: Высшая школа, 1980. - 352 с.

⁵⁸ Саломов Г., Н.Комилов. Дустлик куприклари. - Т.: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. - 221 б.

5. Badiiy tarjimaning ilmiy-adabiy tarjimasida tilni bilib, adabiyotni bilmaslik yoki aksincha, bo'lishi tarjimaga salbiy ta'sir o'tkazadi⁵⁹.

Yuqoridagilarga yana quyidagilarni qo'shimcha qilish mumkin:

Badiiy asarning ilmiy maqsadlarda o'girilgan tarjimalari fanning faqat muayyan sohasi uchungina mo'ljallangan bo'ladi. Biroq tajribalardan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur tarjima sifati darajasiga qarab, undan foydalanish mundarijasi yanada kengroq bo'lishi mumkin. Aynan ana shunday tarjimalargina kelajakda yaratiladigan to'laqonli badiiy tarjimalar yaratishda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qila oladi. Qadimgi davr tilida bitilgan asarlarni hozirgi tillarga o'girish sohasiga jahon tarjimashunos olimlari ham o'z munosabatlarini bildirishgan.

3.3. Ijtimoiy-siyosiy asarlari tarjimasini xususiyatlari

Ma'lumki, o'zbek tili leksik qatlamining anchagina qismini ko'p ma'noli so'zlar tashkil etadi. Bunday so'zlar bir joyda o'z ma'nosida qo'llansa, ikkinchi bir matnda ko'chma ma'noda ishlatilishi mumkin. Ana shu ko'chma ma'noda kelganda so'zlar hissiy-ekspressivlikni ifodalaydi.

Metafora leksik ma'noning taraqqiyotini ko'rsatuvchi til hodisasi bo'lib, u so'zlarning ko'chgan ma'nosi asosida yaratiladi. Bundan, metaforani oddiy o'xshatish deyish ham mumkin, ya'ni qisqartirilgan o'xshatish. Metaforalar mana shu o'xshatish prinsipi asosida so'z ma'nolarini ko'chirish yo'li bilan hosil qilinadi. Metaforalarni qisqartirilgan o'xshatish deganda nima nazarda tutiladi? Masalan, asarda **“beqarorlik o'chog'i”**⁶⁰ iborasi qo'llanilgan. Bu metafora nutqda qisqartirilgan formada aks ettirilgan. Ushbu ibora orqali muallif “rivojlanish to'xtagan, yon-atrofdagilariga notinchlik ulashadigan, siyosiy jihatdan beqarorlik

⁵⁹ Содиқов З. Юсуф Хос Хожиб «Кутадғу билиг» асарининг нсмишча илмий-адабий талқинлари: филол. фан. ном.... дисертацияси. - 1994. - 134 б.

⁶⁰ К а р и м о в И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида ... -Т. : «Ўзбекистон» 1997, -Б.13.

manbasi”ni ifodalamoqda. Quyida asliyatda berilgan metaforik iboraning ingliz tiliga qilingan tarjimasini tahlil qilamiz:

“... nothing to say about the common border with such hotbed of instability in this region as Afghanistan, torn apart by internal conflicts, being encouraged by religious extremism, ethnic intolerance, drug trafficking and external forces of different kinds”⁶¹.

Asarni o'zbek tilida o'qigan har qanday o'quvchi, albatta, “beqarorlik o'chog'i” iborasi zimmasiga yuklatilgan ma'no-mazmunni hech qiyinchiliksiz tushuna olishi shubhasiz. Ibora orqali qandaydir ma'no ifodalanishi bilan bir qatorda hissiy ta'sirchanlik ham yaqqol o'zini namoyon etadi. Ushbu ko'chma ma'noda qo'llanilgan “beqarorlik o'chog'i” iborasi ingliz tiliga “hotbed of instability” deb o'girilgan. Ingliz tilidagi “hotbed” so'zi o'zbek tiliga “rivojlanish to'xtagan sharoit yoki joy”⁶² ma'nosini anglatadi. Bu erda asliyatdagi “o'choq” so'zining ko'chma ta'sirchan ma'nosi ingliz tilidagi o'ziga teng bo'lgan muqobili – hotbed so'zi yordamida ifodalangan.

“Hotbed” so'zi ko'chma ma'noda “manba, maskan” degan ma'nolarni ham ifodalaydi⁶³. Demak, asliyatdagi metafora ingliz tiliga shunga teng ma'noga ega bo'lgan metafora yordamida tarjima qilingan. Aynan mana shu ibora asarning rus tilidagi nashrida ham o'z aksini topgan:

“... к тому же граничит с таким **очагом нестабильности** в регионе, как Афганистан, раздираемый внутренними конфликтами, стимулируемыми религиозным экстремизмом, этнической нетерпимостью, наркобизнесом и разного рода внешними силами”⁶⁴.

Tarjima matnidan ko'rinib turibdiki, asarda berilgan “beqarorlik o'chog'i” – metaforik iborasi rus tilida “**очагом нестабильности**” tarzida ifodalangan. Rus tilidagi “очар” so'zi o'zbek tilidagi “o'choq” so'ziga to'g'ri keladi va bu erda

⁶¹ K a r i m o v I. A. Uzbekistan is on the Threshold ..., -T.: “Uzbekistan”, 1997, -P. 11.

⁶² Hotbed- n. A place or condition where something undesirable can exist and develop: the city is a hotbed of crime. (бирор нарсани мисли кўрилмаган даражада пайдо бўлиши ва риюжланиши: шаҳар жиноят ривожланаётган жойга айланди), Active Study Dictionary of English, “Русский язык», -М.: 1988, -Б. 295.

⁶³ Очаг – рассадник, источник, брит. hotbed. Сиротина Т. А. Большой современный англо-русский, русско-английский словарь, Донецк, 2003, -С. 564.

⁶⁴ K a r i m o v И. Узбекистан на пороге XXI века ..., -М.: издательский дом «Дрофа» 1997, -С.13.

“очар” so’zining ko’chma ma’nosidan foydalanilgan. Aslida “очар” so’zi o’zbek tiliga o’z ma’nosida “o’choq”, ko’chma ma’noda esa “manba, maskan” kabi ma’nolarni ifodalaydi. Masalan, “очар войны – urush manbai (o’chog’i)”, “очар военных провокаций” – harbiy ig’vogarliklar manbai” tarzida⁶⁵ ifodalangan.

Tilda metaforik iboralarni qo’llashga, asosan, mavjud leksik vositalar so’zlovchining nutq predmetiga nisbatan uning istagi darajasida yorqin, obrazli qilib ifodalashda ojizlik qilib qolishi natijasida ehtiyoj tug’iladi. Aynan metaforik iboralar qo’llash usuli bilan emotsional-ekspressiv ma’nolar ifodalashga erishiladi. Bu holat albatta ijtimoiy-siyosiy asarlarga ham xosdir.

Fikrni bayon qilishda kinoyadan foydalanish emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltiradi, ifodalanayotgan fikrning ta’sirchanligini oshiradi, obrazli va jozibador ifoda uslubiga erishiladi. Bir til doirasida bunday usul, ifoda tarzi har tomonlama foydalidir.

Asarning “Mintaqaviy mojarolar” nomli birinchi bobida mustaqil respublikamiz tinchligini saqlash va kelajagini ta’minlash uchun jon kuydirgan muallif quyidagi fikrlarni bildiradi:

“Biroq shu o’rinda bir gapni aytib o’tmaslik mumkin emas. Aftidan, ana shunday «yaxshi niyatli kishilar»ning ko’pchiligi tinchlik va tartibni ta’minlash, mojarolar va ular keltirib chiqaradigan salbiy jarayonlar bizning ona zaminimizga ko’chib o’tishiga yo’l qo’ymaslik uchun davlatimiz nechog’li katta kuch-g’ayrat sarflayotganligi haqida o’ylab ko’rmayotganga o’xshaydi”⁶⁶.

Lekin ushbu emotsional-ekspressivlikni o’z holicha, ta’sir kuchini yo’qotmagan holda ikkinchi bir tilda ifodalash mumkinmikan? Muallifning uslubi, uning metodlari tarjima ishida ham saqlanadimi? So’z ta’sirchanligini, obrazlilikini tarjima tilida ham saqlab qolish imkoni bormi? Ushbu savollarga javob topish uchun quyidagi misolga e’tibor qaratamiz:

“In this context, however, I can but insert one remark that most probably few of such “optimists” can not imagine what huge efforts ...”⁶⁷.

⁶⁵ У с м о н о в О. Ижтимоий-сиёсий терминлар лугати, “Фан”, -Т.: 1976. , -Б. 185.

⁶⁶ К а р и м о в И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида ..., -Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 1997, -Б. 23.

⁶⁷ К а р и м о в I. Uzbekistan is on the Threshold ..., -Т.: “Uzbekistan”, 1997, -P. 21.

Asarda berilgan kinoya - “yaxshi niyatli kishilar” ingliz tilidagi tarjimasida ham kinoya bilan “optimists” tarzida berilgan. Yuqorida biz “yaxshi niyatli kishilar” iborasini kinoya bilan aytilganini va qanday ma’no aks ettirib, qanday vazifalarni bajarganligi haqida gapirib o’tdik. Shu bilan bir qatorda unga muqobil qilib olingan ikkinchi bir tildagi “optimists” so’zi qanday ma’noni anglatadi, asliyatda berilgan kinoyaga teng ma’no va ta’sirchanlikni ifodalay olganmi?

Ingliz tilidagi “optimists” so’zi o’zbek tiliga “har qanday boshlangan ishni yaxshilik bilan yakunlanishiga ishonuvchi kishilar, yaxshi niyatli kishilar” degan ma’nolarni anglatadi⁶⁸. Demak, ingliz tilidagi “optimist” so’zi asarda kinoya bilan qo’shtirnoq ichida o’z ma’nosiga qarama-qarshi bo’lgan ma’noni ifodalayapti. Asliyat matnidagi kinoya tarjima matnida ham unga teng bo’lgan so’z yordamida kinoya bilan berilgan. Kinoya – kinoya orqali tarjima qilingan va shu bilan muallif uslubi, asarning ta’sirchanligi, matnning ifodaliligi, so’zning jozibadorligi tarjima ishida o’z aksini topa olgan.

Tarjima ishida asliyatdagi “ana shunday “yaxshi niyatli kishilar”ning ko’pchiligi (tasavvur qila olmaydi)” iborasi ingliz tiliga “few of such “optimists”, ya’ni “kam sonli “yaxshi niyatli kishilar” (biladilar) tarzida o’girilgan. To’g’ri, bu yerda so’zlarni alohida holda olganimizda bir-biriga antonim, ya’ni asliyatda “ko’pchilik” tarjimada “few” – “ozchilik” deb berilgan. Lekin bu so’zlar matn ichida kelganda asliyatdagi ma’no tarjima ishida to’la saqlangan. Bu o’rinda tarjimonni antonomik tarjima tamoyilidan foydalanganligini ta’kidlash joiz. Bu ham tarjimonning o’ziga xos uslubi bo’lib, tarjima ishini yanada jozibaliroq chiqishiga xizmat qilgan.

Frazeologik birliklar ijtimoiy-siyosiy nutqning ifodaliligini, emotsionalligi va ta’sirchanligini oshirgan holda ma’lum bir maqsadni ko’zlab qo’llaniladi. Asar muallifi o’z fikrini ommabop tarzda ifodalashda xalq orasida qo’llaniladigan frazeologik birliklardan keng foydalangan. Buni quyidagi misol orqali ko’rishimiz mumkin: “Tarix o’z hukmini chiqarar ekan, hamma vaqt sholini kurmakdan

⁶⁸ Optimist – the person that believes that whatever happens will be good, and that things will end well . Active Study Dictionary of English, “Русский язык», М.: 1988, -P. 419.

ajratadi va g'arazli, xudbin maqsadlarini ko'zlab xalq manfaatlarini niqob qilib oluvchi shaxslarning o'zlarini oqlash uchun keltiradigan kibr-havodan iborat dalillarini qabul qilmaydi"⁶⁹.

Ushbu matnda muallif Respublikamiz tevaragida sodir bo'layotgan urushlarni O'zbekiston fuqarolarining tinch, farovon yashashi va ravnaq topishiga tahdid solayotganligini va kelgusi avlod ana shu urush olovini yoqib undan manfaatdor bo'layotgan nopok kimsalarni hech qachon kechirmasliklarini ta'kidlamoqda. Aslida "sholi" so'zi "issiq mamlakat-larda botqoqda o'sadigan, boshhoqlarida guruch etishtiriladigan don o'simligi, shu o'simlikning oqlanmagan, guruch holiga keltirilmagan hosili" – kabi ma'nolarni ifodalaydi⁷⁰. Sholining asosiy kushandalaridan bir "kurmak" so'zi - "odatda sholipoyada ko'p o'sadigan yovvoyi o't va uning qoramtir tariqqa o'xshash doni", ma'nolarini anglatadi⁷¹. Demak, kurmak bu erda sholi uchun zararli. Asar muallifi o'z fikrini ta'sirchan va obrazli ifodalashda shunday yo'l tutganki, O'zbekistonda yashayotgan, sholi bilan kurmakni bir-biridan ajrata oladigan har bir odam uchun bu tushunarli. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, asar muallifi "sholini kurmakdan ajratadi" – frazeologik birikmasi orqali "yaxshini yomondan farqlab oladi" – degan ma'noni obrazli va ta'sirchan, qolaversa, oddiy xalq, sholikor dehqon ham oson tushuna oladigan tilda ifodalab bergan.

Asar tarjimonalari ushbu frazeologik birikmani quyidagicha o'giranlar: "History, when making its final decisions, **always separates the husk from the grain** and does not accept justifications like the ambitions of certain individuals who hide their own malignant wishes behind the alleged interests of the whole nation."⁷²

Tarjimashunoslikda muayyan tarjima tamoyillari mavjudki, ular asosida tarjima ishlari amalga oshiriladi. Ba'zi holar asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasida quyidagi tamoyillarga asoslanilgan:

⁶⁹ К а р и м о в И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида ... , -Т.: «Ўзбекистон», 1997, -Б. 22.

⁷⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, -М.: "Рус тили" нашриёти, 1981. , 2- том, -Б. 424.

⁷¹ Ўша луғат, -Б. 407.

⁷² К а р и м о в I. Uzbekistan on the Threshold of the Twenty-First Century. –G.B.: "Curzon", 1997, -Б. 12.

- abbreviaturalarni kengaytirilgan holda tarjima qilinib, ulardan tarjima tilida qayta qisqartma so'z hosil qilingan;
- mavjud qisqartmalar transkripsiya yoki transliteratsiya tamoyili bilan tarjima tilida aks ettirilgan;
- aslyatda berilgan qisqartma tarjima tilida kengaytirilgan shaklda ifodalangan;
- aslyatda qo'llanilgan muayyan bir sohaga oid atamani tarjima tilida shunga teng bo'lgan qisqartma bilan almashtirish tamoyili qo'llangan.

Tilda berilgan qisqartmani tarjima tilida aks ettirish uchun mavjud tarjima tamoyillaridan aynan foydalanishdan tashqari ayrim qo'shimcha usullardan foydalanishga ham to'g'ri keladi

“Shuning uchun ham O'zbekiston **BMT, EXHT** bayrog'i ostida tinchlikni qo'llab-quvvatlash sohasida amalga oshirilayotgan har qanday tadbirlarda ishtirok etishga tayyor. U mintaqada kollektiv xavfsizlik tizimini vujudga keltirishning tashabbuskorlaridan biridir. Toshkentda 1992-yil may oyida **MDH** davlatlari o'rtasida ana shunday dastlabki shartnomalardan biri imzolandi”⁷³.

Ushbu matndan ko'rinib turibdiki, asar muallifi o'z fikrlarini o'quvchiga oson tushuntirish uchun bir tashkilot yoki davlatning nomini ifodalashda uzundan-uzun so'zlar o'rniga ularning nomini aynan ifodalay oladigan shartli qisqartmalardan foydalangan. Bu, albatta, ko'p joylarda uchrashini va kengaytirilgan shaklidan ko'ra qisqartirilgan holati har qanday kitobxon uchun qulayligini inobatga olganda ijobiy natija berishi mumkin. Quyida aslyatdan olingan matnning ingliz tiliga qilingan tarjimasini ko'rib chiqamiz:

“That is why, Uzbekistan is ready and really prepared to take in peacemaking operations carried out under the aegis of UNO and OSCE. This was the reason why Uzbekistan was one of the initiators to set up a collective security system in the region. One of the first treaties of such kind between the CIS member-states was signed in Tashkent in May, 1992”⁷⁴.

⁷³ К а р и м о в И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида ..., -Т.: “Ўзбекистон”, 1997, -Б. 167.

⁷⁴ К а р и м о в И. Uzbekistan on the Threshold of the Twenty First Century, -Т.: “Uzbekistan”, 1997, -Р.143.

Asardan olingan parchaning ingliz tiliga qilingan tarjimasidan ko'rinib turibdiki, aslyatda berilgan BMT, YXHT, MDH kabi shartli qisqartmalar ingliz tiliga UNO, OSCE, CIS tarzida o'girilgan.

Qisqartmalar:

o'zbek tilidagi tarjima		ingliz tilidagi tarjima	
<i>Qisqartmalar</i>	<i>kengaytirilgan</i>	<i>Qisqartmalar</i>	<i>kengaytirilgan</i>
1. BMT ⁷⁵	Birlashgan Millatlar Tashkiloti	UNO (American)- UN ⁷⁶ (British)	United Nations Organization (American)- United Nations (british)
2. YXHT ⁷⁷	Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti	OSCE ⁷⁸	Organization for security co-operation in Europe
3. MDH ⁷⁹	Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi	CIS ⁸⁰	Commonwealth of Independent States

Ya'ni aslyatdagi qisqartma otning kengaytirilgan shakli tarjima qilinib, ana shu tarjima qilingan so'zlarning bosh harflaridan yangi qisqartma so'z hosil qilingan, ya'ni asarda keltirilgan shartli qisqartma so'zlar tarjimada qayta kodlashtirilgan. Qisqartma otlarni tarjima qilishda bu bir tamoyil hisoblanib, asarning inglizcha tarjimasiga putur etkazilmagan. Angliyada chop qilingan inglizcha nashrning o'ziga xos tomoni shundaki, asar inglizzabon xalqning turmush-tarzi va muhiti nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda tarjima qilinganligi yaqqol bilinadi. Asarning O'zbekistonda V. Pogorelskiy tomonidan o'girilgan inglizcha variantida BMT ingliz tiliga UNO tarzida tarjima qilingan bo'lsa, Angliya variantida UN⁸¹ tarzida berilgan. Bu yerda o'quvchi uchun har ikki ko'rinish ham bir xil ma'no anglatadi. Chunki jahon maydonida barchaga ma'lum bo'lgan bunday shartli qisqartmalarni har qanday o'quvchi tushunishi oson bo'ladi

⁷⁵ <https://en.wikipedia.org/wiki/>

⁷⁶ <https://www.un.org>

⁷⁷ <http://taqvim.uz/>

⁷⁸ <http://taqvim.uz/>

⁷⁹ <https://www.bbc.com/uzbek>

⁸⁰ <https://www.bbc.com/uzbek>

⁸¹ K a r i m o v I. Uzbekistan on the Threshold of the Twenty First Century, -G.B.: Curzon Press, 1997, -P.102.

va tez anglay oladi. Bu holat har ikki tarjimaning o'ziga xos uslubi bo'lib, ma'noga putur yetkazmagan.

Asliyatda qo'llanilgan ayrim shartli qisqartmalar ingliz tiliga tarjimonlar tomonidan abbreviaturalarni tarjima qilish va tarjima tilida ularning bosh harflaridan foydalangan holda qisqartma so'z yasash tamoyilidan foydalangan bo'lsalar, ayrim joylarda asliyatdagi qisqartma ot ishora bilan aynan shu qisqartmaning chala kengaytirilgan shaklidan foydalangan holda tarjima qilingan. Bu holat tarjimada kamchilik keltirib chiqarmaydi. Aksincha, bu ham muallif fikrini ifodalashda tarjimonning o'ziga xos uslubi hisoblanadi.

Asliyatda:

“O'zbekiston **MDH** davlat boshliqlarining 1992-yil 8-fevralda imzolangan Bitimiga muvofiq tuzilgan **MDH** mamlakatlari Davlatlararo Ekologiya Kengashining to'la huquqli a'zosidir. **MDH** mamlakatlarining ana shu ekologiya kengashi doirasidagi hamkorligi a'zo davlatlarning atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi kelishib olingan, muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlar qilish maqsadini ko'zlaydi”⁸².

Asardan olingan matndan ko'rinib turibdiki, butun dunyoda xavfsizlik, ekologik muammolar borasida o'z fikrlarini bayon etishda muallif tomonidan bir matn doirasida uch marotaba bir xil shartli qisqartma so'z qo'llanilgan. Albatta, asar muallifi o'quvchi uchun qulay, tushunarli bo'lish uchun ko'p takrorlanib kelayotgan “Mustaqil davlatlar hamdo'stligi”ning qisqartma shaklidan foydalangan. Vaholanki, bu hol barchaga tushunarli ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. Shunday ekan har safar ushbu tashkilot nomining kengaytirilgan shaklidan foydalanishga hojat yo'q. Asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasida quyidagicha aks ettirilgan.

Tarjimada:

“Uzbekistan is a full and equal member of the **CIS** Intergovernmental Ecological Council created in accordance with the agreement signed by the Heads of **States** on February 8, 1992. Cooperation between the **CIS** countries within the

⁸²К а р и м о в И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида ..., -Т.: “Ўзбекистон”, 1997, -Б. 131.

framework of the above Ecological Council seeks to adopt concerted and coordinated actions of the member-states in the domain of the environmental protection”⁸³.

Bu yerda aslyatda berilgan shartli qisqartmaning bir matn ichida takrorlanib kelayotganligini e’tiborga olgan asar tarjimoni ma’noning matn ichida ochilishi va o’quvchi uchun tushunarli bo’layotganligini inobatga olib aslyatda berilgan MDH rahbarlari qisqartmasini “Davlatlar Rahbarlari” tarzida ifodalagan. Albatta, asarning inglizcha tarjimasini mutolaa qilgan o’quvchi aslyatdan anglashilgan ma’noni to’la tushuna oladi, chunki ma’no o’zgarmagan. Sababi “Davlatlar Rahbarlari” birikmasi aynan “Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi davlatlari rahbarlari” ekanligi matndan yaqqol anglashilib turibdi. Shu bilan tarjimon o’z uslubiga xos bo’lgan yo’ldan borib aslyat ma’nosini ingliz tilida to’la ifodalay olgan.

Asarning Angliyadagi tarjimasida ham aynan shunday tarjima tamoyilidan foydalanilgan⁸⁴.

- asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasida quyidagi tamoyillarga asoslanilgan:
- abbreviaturalar kengaytirilgan holda tarjima qilinib, ulardan tarjima tilida qayta qisqartma so’z hosil qilingan;
- mavjud qisqartmalar transkripsiya yoki transliteratsiya tamoyili bilan tarjima tilida aks ettirilgan;
- aslyatda berilgan qisqartma tarjima tilida kengaytirilgan shaklda ifodalangan;
- aslyatda qo’llanilgan muayyan bir sohaga oid atamani tarjima tilida shunga teng bo’lgan qisqartma bilan almashtirish tamoyili qo’llangan.

⁸³ K a r i m o v I. Uzbekistan on the Threshold of the Twenty First Century, -T.:“Uzbekistan”, 1997, -P.111.

⁸⁴ K a r i m o v I. Uzbekistan on the Threshold of the Twenty First Century, -G.B.:Curzon press, 1997, -P. 79.

III Bob bo'yicha xulosa

1. Tahlil natijalarining ko'rsatishicha, Sharq mumtoz adabiyotidagi har qanday badiiy tasvir vositasini G'arb tillariga tarjima qilib bo'ladi. Faqat aynan emas. Turli uslubda. Bu ko'p jihatdan tarjima o'quvchisining did-saviyasi, Sharq badiiyatini qanchalik tushuna olish darajasiga bog'lik. Xorijda Boburnoma hakida 30 dan ortiq roman, esse kabi janrlar ustidan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

2. "Boburnoma"dagi badiiy san'atlarni ingliz tillariga tarjima qilinishi usha xalq adabiyotiga yangiliklar olib kiradi. O'quvchilarning esa, estetik saviyasini bir pog'ona yuqoriga kutaradi. Asardagi o'xshatishlarni Yevropa tillariga o'girishda mutarjimlar qo'llagan rang-barang tamoyillar ijobiy natija bergan bo'lsa, asliyatdagi o'xshatishlarni muttasil so'zma-so'z tarjima qilish ko'proq soxta muqobillik domiga tushib qolishga olib kelgan.

3. Ijodiylik har bir asar tarjimasida o'ziga xos tomondan namoyon bo'ladi. "Qutadg'u bilig"ning V.Radlov va R.Denkoff tarjimalari ham bu boradagi yangi hodisadir. Mazkur asarni hozirgi ingliz tilliga o'girishda asliyatning qomusiy manba ekanligini diqqat markazga olib chiqishlik zaruriyati doimo saqlanib qoladi. Bunda asar tarjimasiga asliyatning adabiy, lisoniy va falsafiy-tarixiy asoslarini o'zaro mujassamlashtirgan holda yondoshishgina uning to'laqonli chiqishiga asosiy omil bo'lishi mumkin.

4. Asarning inglizcha tarjimalarida maxsus izoh, sharh tavsif va lug'atlarning berilishi tarjimonlar "Boburnoma" va «Qutadg'u bilig» asariga Markaziy Osiyo madaniyati va tarixini, turkiy o'ziga xosligini o'zida aks ettirgan tarixiy manba sifatida yondoshganliklarini bildiradi. Ayni paytda, aruzning mutaqorib bahrida bitilgan mazkur asardagi so'z san'atiga, badiiy tasvir vositalariga tarjima tilidan muqobilliklar topa bilganliklari ularning ushbu obidaga turkiy xalqlar adabiyotining ilk namunasi deb qaraganliklarini ham ko'rsatadi.

5. Ijtimoiy-siyosiy asarlarda, eng avvalo, ma'no ustuvorligi, lo'ndalik birinchi o'rinda turadi. Asarda bunga katta e'tibor berilgan. Jumladan, muallif o'z o'quvchisiga tushunishga oson bo'lishi va yozuvda sathni tejash maqsadida qisqartmalardan unumli foydalangan. Asarda qo'llangan qisqartmalarni tarjimonlar turli tarjima prinsiplari asosida o'girish bilan bir qatorda, o'quvchiga tushunmovchilik, g'alizlik keltirib chiqaruvchi holatlardan uzoqlashganini guvohi bo'ldik.

6. O'zbek tilidagi ijtimoiy-siyosiy asarlarning xorijiy tillarga tarjima qilinishi, Birinchi Prezident Islom Karimov asarlari misolida tadqiq qilinishi natijalarining ko'rsatishicha, tarjimondan asliyatda aks ettirilgan ijtimoiy-siyosiy voqelikni jiddiy o'rganishi iqtisodiy, ma'naviy islohotlarning mohiyatidan yaxshigina xabardor bo'lishi talab etiladi. Aks holda, tarjima jarayonida yo'l qo'yilgan juz'iy kamchiliklar faqat filologik xatogina bo'lib qolmay, ayni paytda ijtimoiy-siyosiy tushunmovchiliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

XULOSA

Tarjimaning sifatini baholash jarayonida ko'p hollarda muqobillik darajasiga katta ahamiyat beriladi. Tarjima nazariyasida muqobillik darajalarini aniqlash borasida ko'plab olimlar, jumladan, A. Fyodorov, Retsker, Ketford, Gak, Eger va boshqalarning qarashlari mavjud.

Tarjima matn asliyat matnning o'rnini bosa oladigan matn bo'lishi kerak. Asliyat va tarjima matnlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tarjima matnning ba'zi o'rinlari mazmunan asl matndan turli darajada yiroq bo'ladi. Shu sababli tadqiqotchilar muqobillik tushunchasining variantlariga, ularning turli darajalariga tayanadi.

Matnning badiiy obrazlilik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, bu matnning milliy madaniyatga bog'liqlik darajasi shunchalik yuqori. Bir madaniy muhitdagi badiiy matnning tarjimasi turli yo'llar bilan amalga oshirilib, bu tarjimonning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liq. Eng oddiy maqsad badiiy asarning syujetini kayta qurishdir. Bunday tarjima asarning badiiy mohiyatiga deyarli ta'sir qilmaydi, birok xuddi shu eng past miqyosda madaniyatlararo farq paydo bo'lib, asl nusxani o'qiyotgan kitobxonlarning asarning syujetli hodisalar asosini tushunishiga xalaqit beradi.

Asliyat asarni o'qiyotgan kitobxon uchun asliyatdagi va tarjima qilinayotgan mamlakatlardagi urf-odatlar, turli ijtimoiy qatlamlarning madaniy boyligi, qabul qilingan qadr-qiymatlari, personajlarning xatti-harakatlari ba'zida tushunarsiz bo'lishi mumkin, chunki tarjimon voqealarni faqat mexanik qayta tiklab chiqadi.

Badiiy asarni boshqa odamlar hayoti, uning tarixi, ularning urf-odatlari, an'analari, milliy mentaliteti xususiyatlari bilan o'quvchilarni tanishtirish uchun tarjima qilish mumkin.

Bu holda tarjimon matnni milliy-madaniy moslashtirishdan deyarli butunlay voz kechib, matndagi xaqiqatni imkon qadar saqlab, turg'un birikma (ibora)larni kalka usulida berib, tarjimani keng tushuntirib, ilova-izoh bilan ta'minlashga to'g'ri keladi. Bunday tarjima shunday vazifani bajarsa, uni mintaqaviy-geografik

tasvir deb atash mumkin, ammo asl nusxadagi badiiy tasvirni qayta yaratishni deyarli yo'q qiladi.

Nihoyat, badiiy matn asl nusxani o'qiy olmaydigan kitobxonning til bilmasligi sababli uni yozuvchining asarlari bilan tanishtirish maqsadida tarjima qilinadi. Bu holda badiiy asarning qayta yaratilishi uchun, birinchi navbatda, matnning badiiy aspekti qayta yaratilishi talab qilinadi.

Aynan shunday holatda matnning milliy-madaniy mazmuni shu o'rinda namoyon etiladi. Sababi, badiiy tasvir xar doim bir tarzda, muallif va o'quvchi uchun umumiy bo'lgan g'oyalar, adabiy, tarixiy, madaniy tushunchalar, ma'lum bir qadriyatlar tizimi hisoblanadi. Tarjima jarayonida so'zlar emas, tushunchalar tarjima qilinadi. Bu asos buzilishi oqibatida tasvir vayron etiladi. Faqat muhim ahamiyatga ega tushuncha va so'zlarning bog'liqligi vizual tasvirli ma'noni ramziy aks ettiradi. Bularning hammasi tarjimada jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi, chunki tarjimani o'qiyotgan o'quvchi boshqa bir madaniyat egasi bo'lib, u boshqa muhitdagi bilimlar tizimiga, boshqa bir tushunchaga tayanadi. Umuman olganda, badiiy asar tarjimasini o'qiyotgan kitobxon bilan asl matnni o'qiyotgan o'quvchining fikri to'g'ri kelmaydi. Agarda badiiy asar muallifi, odatda, ongli yoki ongsiz ravishda o'z asarini aynan bir auditoriyaga qaratsa, bunda tarjima aloqalarining yo'qolishi bundan mustasnodir, madomiki, bunday o'quvchilar boshqa madaniyatdan bo'lishi mumkin emas.

O'zbek tilida nutqni, biror-bir xabar yoki yozma axborotni bayon qilishda tilda mavjud bo'lgan hissiy-ekspressivlikni hosil qiluvchi vositalar muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-siyosiy asarlarda qo'llangan bunday birliklarni bir tildan boshqasiga o'girishning o'ziga xos talab va qoidalari mavjud. Jumladan, tarjimon, avvalo asliyat tilini, asar mohiyatini, muallif uslubi, nozik ifoda usullarini mukammal o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Tadqiqot ishini yozish jarayonida birinchi Prezidentimiz asarida ishlatilgan metaforalar, ularning ingliz tiliga tarjimasi tamoyillarini qiyosiy tahlildan o'tkazdik. Har bir faslda tegishli xulosalar chiqardik. Umumnazariy g'oyalarni olg'a surdik. Asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasida tarjima tamoyillariga asoslangan holda ish yuritilib, muallif tomonidan

bildirilgan fikrlar va uning uslubini tarjimada saqlab qolishga imkon qadar erishilganligining guvohi bo'ldik.

O'zbek tilidagi ijtimoiy-siyosiy asarlarning xorijiy tillarga tarjima qilinishi, Birinchi Prezident Islom Karimov asarlari misolida tadqiq qilinishi natijalarining ko'rsatishicha, tarjimondan asliyatda aks ettirilgan ijtimoiy-siyosiy voqelikni jiddiy o'rganishi iqtisodiy, ma'naviy islohotlarning mohiyatidan yaxshigina xabardor bo'lishi talab etiladi. Aks holda, tarjima jarayonida yo'l qo'yilgan juz'iy kamchiliklar faqat filologik xatogina bo'lib qolmay, ayni paytda ijtimoiy-siyosiy tushunmovchiliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Tasviriy tizimning bir madaniyatdan boshqasiga o'tkazilishi tarjimada qarama-qarshi natijalarga olib kelishi mumkin. Shunday voqealar borki, yozuvchi va uning ijodiy usuli va uslubi bir madaniyatga asoslangan bo'lsa, keyinchalik u boshqa madaniyat vakillari uchun boshqa tilda yoza boshlagan holatlar ham mavjud. Agar yozuvchida ikki tilda yozish imkoni bo'lsa, ikkinchi tilda badiiy asar yoza oladigan darajaga ega bo'lsa-da, lekin u yozma va ijodiy fikrlash tizimini saqlab, chet tilida o'quvchi notanish uslubni muallifning individual usuli deb xisoblashi mumkin.

Bunga asos qilib, aynan shu sabab yuzasidan V. Nabokovning amerikalik tanqidchilar tomonidan yuqori baholangan ingliz tilidagi nasriy asari hozirda Rossiya tizimida dunyoni obrazli aks ettirgan. Ingliz tilidagi o'quvchilar uchun tasvirlangan voqealar odatdan tashqari hisoblanib, tushunchalar o'ziga xos uslubi sifatida tanildi.

Ma'nosi yaqin muqobillarni ishlatish usuli, ya'ni tarjima tilida ma'nosi yaqin bo'lgan so'zlar qo'shimcha ma'noni ifodalashi uchun, zarur bo'lsa, matn shu so'z haqida qisqa ma'lumot berib utish yordamida kengaytirilgan bo'ladi.

Manba tilidagi so'zning, birliklarning ma'nosini ochib berishda turli leksik transformatsiyalardan foydalanilgan.

She'riy matnlarni boshqa tilga tarjima qilish jarayonida tushunmovchiliklar yuzaga keladi.

Birinchidan, she'riy matnda ta'sir o'tkazish funksiyasi xabar berish funksiyasidan muhim hisoblanadi. Ikkinchidan, she'riyatda bir necha bor til formasini roli kengayadi. Nihoyat, V. M. Rossels ta'kidlaganidek, she'riyatda so'z "vazni" kuchliroq. She'riy matnlar (asosan, kichik she'rlar) har bir so'zida ma'nolarning yuqori darajada moslashuvining paydo bo'lishi ma'no va mazmundan tashqari, har bir so'z, matnning ichki va tashqi ma'nolarining bir-biri bilan aloqasi, bir so'zning noto'g'ri tarjimada qo'llanilishi butun bir she'rning ma'nosini buzishga olib keladi.

Tahlil natijalarining ko'rsatishicha, Sharq mumtoz she'riyatidagi har qanday badiiy tasvir vositasini G'arb tillariga tarjima qilib buladi. Faqat aynan emas. Turli uslubda. Bu ko'p jixatdan tarjima o'quvchisining did-saviyasi, Sharq badiiyatini qanchalik tushuna olish darajasiga bog'liq. Xorijda Boburnoma haqida 30 dan ortik roman, esse kabi janrlar ustidan ilmpy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. «Boburnoma»dagi badiiy san'atlarni ingliz tillariga tarjima qilinishi ingliz xalqi adabiyotiga yangiliklar olib kirgan. O'quvchilarning esa, estetik saviyasini bir pog'ona yuqoriga ko'targan. Asardagi o'xshatishlarni Yevropa tillariga o'girishda mutarjimlar qo'llagan rang-barang tamoyillar ijobiy natija bergan bo'lsa, asliyatdagi o'xshatishlarni muttasil so'zma-so'z tarjima qilish ko'proq soxta muqobillik domiga tushib qolishiga olib kelgan.

Ijodiylik har bir asar tarjimasida o'ziga xos tomondan namoyon bo'ladi. «Qutadg'u bilig»ning V.Radlov va R.Denkoff tarjimalari ham bu boradagi yangi hodisadir. Mazkur asarni hozirgi ingliz tilliga o'girishda asliyatning qomusiy manba ekanligini diqqat markazga olib chiqishlik zaruriyati doimo saqlanib qoladi. Bunda asar tarjimasiga asliyatning adabiy, lisoniy va falsafiy-tarixiy asoslarini o'zaro mujassamlashtirgan holda yondoshishgina uning to'laqonli chiqishiga asosiy omil bo'lishi mumkin.

Asarning inglizcha tarjimalarida maxsus izoh, sharh tavsif va lug'atlarning berilishi tarjimonlar "Boburnoma" va «Qutadg'u bilig» asariga Markaziy Osiyo madaniyati va tarixini, turkiy o'ziga xosligini o'zida aks ettirgan tarixiy manba sifatida yondoshganliklarini bildiradi. Ayni paytda, aruzning mutaqorib bahrida

bitilgan mazkur asardagi soʻz sanʼatiga, badiiy tasvir vositalariga tarjima tilidan muqobilliklar topa bilganliklari ularning ushbu obidaga turkiy xalqlar adabiyotining ilk namunasi deb qaraganliklarini ham koʻrsatadi.

Ijtimoiy-siyosiy asarlarda, eng avvalo, maʼno ustuvorligi, loʻndalik birinchi oʻrinda turadi. Asarda bunga katta eʼtibor berilgan. Jumladan, muallif oʻz oʻquvchisiga tushunishga oson boʻlishi va yozuvda sathni tejash maqsadida qisqartmalardan unumli foydalangan. Asarda qoʻllangan qisqartmalarni tarjimonlar turli tarjima prinsiplari asosida oʻgirish bilan bir qatorda, oʻquvchiga tushunmovchilik, gʻalizlik keltirib chiqaruvchi holatlardan uzoqlashganini guvohi boʻldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

- 1 Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.- Т.: “Ўзбекистон”, 2016.-159 б.
- 2 “Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора – тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1875- сонли қарори, - Т: 2012. “Маърифат” газетаси, №99
- 3 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сон «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори.
- 4 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 январдаги «Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида»ги Фармони, www.norma.uz
- 5 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон «Қадимий қўлёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори, www.lex.uz
- 6 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 июндаги 3074-сон «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистонга оид хориждаги маданий бойликларни тадқиқ этиш марказини ташкил этиш тўғрисида»ги Қарори, www.lex.uz
- 7 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 11 августдаги 610-сон «Таълим муассасаларида чет тилларини ўқитишнинг сифатини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори, www.lex.uz
- 8 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича «Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. www.lex.uz

Ilmiy-badiiy adabiyotlar:

1. Алимов В. В. Теория перевода. Перевод в сфере профессиональной коммуникации. - Москва: УРСС, 2004. - 256 с.
2. Бархударов Л. С. Язык и перевод. - Москва: МО, 1975. - 190 с.
3. Бобур қўлёзмалари хорижий фондларда // Тил ва таржима муаммолари (Худудий илмий-амалий анжуман материаллари илмий-услубий мақолалар тўплами). – Наманган, 2009. –184 б.
4. Виссон Линн. Практикум по синхронному переводу с русского на английский. - Москва, 2000. – 200 с.
5. Казакова Т. А. Translation Techniques. Практические основы перевода. Санкт-Петербург, 2001. - 320 с.
6. Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода. - Москва, 1980. - 167 с.
7. Комиссаров В. Н., Коралова Д. Л. Практикум по переводу с английского языка на русский. - Москва, 1990. - 112 с.
8. Комиссаров В. Н. Современное переводоведение.-Москва:ЭТС, 2002.-410 с.
9. Мирзаев И. К. Слова-реалии и вопросы художественного перевода.- Самарканд, 1982. - 92 с.
10. Муминов О., Тургунов Р. ЎЗМА таржима. - Т., 2008. - 86 б.
11. Муминов О. М. A Guide to Simultaneous Translations. - Т., 2005.
12. Мусаев К. Стилистические вопросы художественного перевода с английского языка на ўзбекский. Автореф. дисс.канд. филол. наук. - Самарканд, 1967. - 150 с.
13. Мусаев К.. М. Таржима назарияси асослари. - Т., 2005. - 352 б.
14. Рахимов Ф. Замонавий социолингвистиканинг долзарб масалалари. - Самарканд: СамДЧТИ нашри, 2007. - 108 б.
15. Рахимов Ф. Инглиз тили сўзлашув типологияси. - Самарканд: СамДЧТИ нашри, 2008. - 108 б.
16. Рахимов Ф. Таржимонлик амалиёти. - Самарканд: СамДЧТИ нашри, 2008. - 38 б.

17. Рахимов Ғ. Таржима назарияси ва амалиёти. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. - Тошкент-2016. 176 б.
18. Саломов Ғ. Адабий анъана ва бадиий таржима. - Т.: Фан, 1980. - 124 б.
19. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. - Т.: Ўқитувчи, 1983. - 102 б.
20. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. - Т.: Ўқитувчи, 1978. - 152 б.
21. Саломов Ғ. Таржима ташвишлари. - Т.: 1983. - 138 б.
22. Саломов Ғ. Тил ва таржима. - Т., 1966. - 103 б.
23. Холбеков М. Таржима назариясининг лингвистик принциплари // Филология масалалари. 2009. N1. 49-53-бетлар.
24. Холбекова Б. Ўзбек тилидан инглиз тилига таржималар тарихидан // “Шарқ юлдузи” журналининг 2010 йил N4. – Б 6.
25. Холмурадова Л. Э. Инглиз ва француз тилларидаги образли ва мотивлашган фразеологизмларнинг тематик идеографик талқини (лингвомаданий аспект) филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент 2017, – 50 б.
26. Хошимова Д.М., Отажонов Н.О. «Бобурнома» - шарқ элчиси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 168 б.
27. Хошимова Д.М. «Бобурнома» матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи. – Монография. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – 244 б.
28. Шарипов Ж. Бадиий таржималар ва таржима назарияси. - Т., 1972.-215 б.
29. Швейцер А.Д. Теория перевода статус проблемы. – Москва: Наука 1988. - 214 с.
30. Ўзбек тилининг изохли луғати. Мадвалиев А. таҳрири остида. Тошкент, – 2006 -2008, - 439 б.
31. Қодирий Абдулла. Ўткан Кунлар. Тошкент: Янги аср авлоди. – 2016. - 175 б.
32. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати.- Тошкент: Академнашр, 2013. – 258 б.

33. Юсупов У. Инглиз ва ўзбек тилларининг чогиштирма лингвистикаси. -Т.: Akademnashr, 2013. - 283 б.
34. Ғафуров И., Муминов О., Камбаров Н. Таржима назарияси. - Т.: Тафаккур-Бустон, 2012. - 175 б.
35. Ғафуров И. Таржимонлик мутахассислигига кириш. Ўқув кулланма. -Т.: Мехридарё, 2008. - 118 б.
36. Ashurova D. U. Text Linguistics. - Т.: Tafakkur qanoti, 2012. - 200 p.
37. Galperin I. Stylistics. – Moscow: Higher school, 1977. – 335 p.
38. Haydarov A., Choriyeva Z. Ingliz tilida frazeologik birliklarning semantik – grammatik va uslubiy xususiyatlari. Tilning leksik – semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya diaxroniya. Materiallar to'plami – Т.: “Muharrir”, 2012.- 8 – 10 betlar.
39. Haydarov A., Jo'raqulova G. Frazeologik iboralar tarjimasida. Tilning leksik – semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: Sinxroniya va diaxroniya. Materiallar to'plami – Т.: “Muharrir”, 2012.10 – 12 betlar.
40. Haydarov A., Zaripova R. Ingliz va o'zbek tillarida joy nomlari bilan bo'g'liq frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari. Tilning leksik – semantik tizimi,qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari – Т.: 2014.- 5 – 6 betlar.
41. Kadiri Abdulla. Days gone by. Paris: Nouveau Monde editions,-2018, - 375 p.
42. Narimonova Z. Frazeologik iboralarning tarjimasida haqida. O'zMU to'plami.2007. – 260 b.
43. Oybek M.T. Navoiy. - Yangi asr avlodi, 2016, P.469.
44. Pinxasov U. Hozirgo o'zbek adabiy tili leksikologiyasi. – Т.: “Fan”,1968. – 120 b.
45. Qodirov P. Starry nights. Babur. – Samarqand, 2019. - 444 p.
46. Qilichev E. Sinonimik iboralarning uslubiy xususiyatlari.SamDU to'plami. – S.:2006.-B 66-68 .

Интернет сайтлари:

1. <http://education.leeds.ac.uk/edu-mwe/eltwww.htm>
2. www.lex.uz
3. <http://www.translate.ru/>
4. <http://www.uz-translations.net>
5. www.lexikon-defenition.de
6. www.onestopenglish.com
7. www.translation.com
8. kh-davron.uz/yangiliklar/.../pirimqul-qodirov-saboqlari.html
9. <http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/tanqidchilik/1006-maqola.html>
10. <https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/pirimqul-qodirov-1928-2010/>
11. <https://www.bbc.com/uzbek>
12. <https://www.un.org>
13. <http://taqvim.uz/>
14. <https://en.wikipedia.org/wiki/>